mavsumiy ishchilar va noto'liq ish vaqtida iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lgan shaxslar. Ayrim mamlakatlarda bu guruhlarining hammasi yoki ma'lum qismi iqtisodiy faol aholi toifasiga kiritiladi, boshqa mamlakatlarda esa ular nofaol tariqasida talqin qilinadi. Ammo odatda iqtisodiy faol aholi to'g'risidagi ma'lumotlarga: talabalar, uy ishi bilan band bo'lgan ayollar; pensionerlar; to'liq o'z mablag'lari hisobiga yashovchi shaxslar; to'la boshqalarga qaram shaxslar kiritilmaydi. Qamalganlar, qoidaga ko'ra, ular iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishlaridan qat'inazar bandlar va ishsizlar tarkibiga kiritilmaydi.

Iqtisodiy faol aholini ta'riflash maqsadida guruhlash usulidan keng foydalaniladi. Bu guruhlarini shartli tarzda ikki turga: umumdemografik va ijtimoiy - iqtisodiy turlarga ajratish mumkin.

Umumdemografik guruhlar faqat iqtisodiy faol aholigagina emas, balki butun aholiga taalluqlidir. Ularga quyidagilar kiradi:

- a) jins va yosh bo'yicha guruhlash;
- b) hududiy guruhlash (turar joy bo'yicha), har bir mamlakatning ma'muriy - hududiy bo'linishi asosida amalga oshiriladi;
- v) shahar va qishloq aholisiga guruhlash, har bir mamlakatda amalda bo'lgan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi;
- g) oilaviy ahvolga ko'ra guruhlash (nikohda turganlar, bo'ydoqlar, ajralganlar, bevalar);
- d) oila a'zolari soni bo'yicha guruhlash;
- e) millati va ona tili bo'yicha guruhlash (har bir kishining o'z fikri asosida);
- j) fuqarolik bo'yicha guruhlash (mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi hisoblanadi);
- z) ma'lumoti darajasiga ko'ra guruhlash (shu mamlakatda qaror topgan ta'lim tizimiga muvofiq);
- i) yashash uchun zarur mablag'lar manbalari bo'yicha guruhlash (mashg'ulotlardan daromadlar; pensiyalar; nafaqalar; stipendiyalar; sarmoyadan daromadlar; foizlar; dividendlar; ijaraga berish; ayrim shaxslar boqimandalari; jamoalar boqimandalari; davlat boqimandalari).

Ijtimoiy - iqtisodiy guruhlar bevosita iqtisodiy faol aholiga taalluqli bo'lib, uning iqtisodiy faoliyatdagi o'rnini ifodalaydi. Bularga eng avvalo, sinflar va ijtimoiy guruhlar bo'yicha guruhlash kiradi, bu usul ilgari sobiq socialistik mamlakatlar statistikasida qo'llanilgan. Hozirgi kunda 4-bandlik maqomining xalqaro tasnifi bazasida amalga oshiriladigan bandlikdagi holati bilan almashtirilgan.

Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida iqtisodiy faollik, bandlik va ishsizlikning muvofiq keluvchi koeffitsientlari alohida jins va yosh guruhlarini bo'yicha ham, butun aholi uchun aniqlanadi. Bunda bandlik va ishsizlik koeffitsientlarini quyidagi kategoriyalarga nisbatan hisoblab chiqish mumkin:

- a) aholining umumiy soniga;
- b) iqtisodiy faol aholi soniga.

Aytib o'tilgan ko'rsatkichlar hisob-kitobi quyidagi formulalar bo'yicha amalga oshiriladi:

$$\hat{E}_{faol} = \frac{S_{faol}}{S_{band}} \cdot 100; \quad \hat{E}_{band} = \frac{S_{faol}}{S_{umum}} \cdot 100; \quad \hat{E}_{band} = \frac{S_{band}}{S_{faol}} \cdot 100;$$

$$\hat{E}_{band} = \frac{S_{band}}{S_{umum}} \cdot 100; \quad \hat{E}_{ishs} = \frac{S_{ishs}}{S_{faol}} \cdot 100; \quad \hat{E}_{ishs} = \frac{S_{ishs}}{S_{umum}} \cdot 100$$

Bunda: K_{faol} , K_{band} , K_{ishs} - muvofiq tarzda faollik, bandlik va ishsizlik koefitsientlari;

S_{faol} , S_{band} , S_{ishs} , S_{umum} - muvofiq tarzda iqtisodiy faol, band, ishsiz aholi soni va aholining umumiy soni.

Tahlil maqsadida iqtisodiy faol aholi soni va bandlar sonining muvofiq tarzda mehnatga layoqatli aholiga nisbatidan ham foydalanish, maqsadga muvofiq va mumkin bo'lgan holatda ishsizlik koefitsientini yollanma ishchilar va o'z korxonasida band bo'lganlar uchun alohida hisoblash mumkin.

Aytish lozimki, faollik, bandlik va ishsizlik koefitsientlari ikki usulda hisoblab chiqilishi mumkin:

- a) lahzalik (biror sanadagi holati bo'yicha);
- b) oraliqli (biror vaqt davri uchun).

Statistik amaliyotda ko'pincha iqtisodiy faol aholiga nisbatan hisoblangan bandlik va ishsizlik koefitsientlaridan foydalaniladi. Bu holatda bandlik va ishsizlik koefitsientlarining yig'indisi bir-birga teng bo'ladi.

Ayrim mamlakatlar statistikasida ishchi kuchini bandlik muammolari bo'yicha tadqiq qilish ma'lumotlari bazasida olinadigan va XMT tavsiyalariga muvofiq hisoblanadigan ishsizlar umumiy soni hamda umumiy ishsizlik darajasining baholovchi ko'rsatkichlari bilan birga bandlik xizmati joriy statistikasi ma'lumotlari bo'yicha ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi ko'rsatkichi ham hisoblanadi. Ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi bandlik xizmati organlarida ro'yxatga olingan ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbatani ifodalaydi. SHunisi ravshanki, ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi uning umumiy darajasidan bir necha marta past bo'ladi, chunki mamlakat iqtisodiy faol aholisining umumiy sonidagi haqiqiy ishsizlar kam qismininggina ulushini ifodalaydi.

3.2.2-jadval

Mehnat bo'limlarida qayd etilgan ishsizlar (yil oxiriga ming kishi)

	2003 y.	2004 y.
Mehnat bo'limlarida qayd etilgan ishsizlar	32,2	34,9
Bulardan ishsizlik badalini oluvchilar	17,9	19,5
Ishsizlik darajasi, % da	0,3	0,4
Mehnat bilan ta'minlangan aholi	317,4	323,7

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh 2004 yil. №8 mart 2005.

Ishsizlikning iqtisodiyotga salbiy ta'sirini ifodalashda milliy iqtisodiyotning ishsizlikdan yo'qotishlarini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Bu yo'qotishlar ikki xil bo'ladi: birinchidan, davlat amalda bo'lib turgan mehnat to'g'risidagi qonunlarga ko'ra, ishsizlarning muayyan qismiga ishsizlik nafaqalarini to'lashga majbur, ikkinchidan, ishsizlar ishlab chiqarishda ishtirok etmayotganliklari tufayli davlat milliy mahsulot va milliy daromadning ma'lum qismini yo'qotadi. Birinchi tur yo'qotishlarini to'langan ishsizlik nafaqalari summasi sifatida aniqlash mumkin. Ikkinchi turdagi yo'qotishlarni ishsizlarning yillik o'rtacha sonini xodimning milliy daromadi yoki mahsulot bo'yicha hisoblangan yillik o'rtacha mehnat unumdorligiga ko'paytmasi sifatida aniqlash mumkin. Bu hisob-kitob quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$D_{YAIM(MD)} = \frac{YAIM(MD)}{S_{band}} * S_{ish s}$$

Bunda: YAIM (MD) - o'rganilayotgan davrda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning qiymati;

S_{band} va $S_{ish s}$ - o'rganilayotgan davrdagi bandlar va ishsizlarning o'rtacha soni.

3.3. Mikrodarajada band bo'lganlarni statistik o'rganish

Korxonada xodimlari soni haqida ma'lumot korxonada mehnat hisobotida aks ettiriladi. Korxonada xodimlari sonining birlamchi hisoboti ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish buyruqlaridan boshlanadi va korxonada xodimlarini kunlik ro'yxatdagi soniga kiritiladi. Hamma xodimlar kategoriyalari, doimiy, vaqtincha, mavsumiy ishga qabul etilgan asosiy yoki yordamchi ish faoliyatiga qaramasdan, korxonada tarkibida alohida shtatdagi xodimlardan tashqari o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar (sovmetitellarning) hisobi ham yuritiladi.

Ro'yxatdagi xodimlar soniga ishga qabul qilish haqida buyruq chiqqan kundan boshlab, to ishdan bo'shatish haqida buyruq chiqquncha ro'yxatda bo'lganlar kiritiladi.

Doimiy xodimlar soniga ishga qabul qilish buyrug'ida muddati ko'rsatilmagan xodimlar kiritiladi.

Vaqtincha xodimlar soniga ikki oy muddatgacha yoki vaqtincha ishlamayotgan xodimlar o'rniga ishlashga 4 oygacha qabul qilinganlar kiritiladi.

Mavsumiy xodimlarga olti oygacha mavsumiy ish bajarish uchun qabul qilinganlar kiritildi.

Kalendar ish kuni ro'yxatdagi xodimlar soniga shu kuni haqiqiy ishlaganlar va turli xil sabablarga ko'ra ishlamaganlar kiritiladi:

- xizmat safarida bo'lganlar;
- navbatdagi va qo'shimcha ta'tilda bo'lganlar;

– davlat va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish bilan band bo'lganlar;
oilaviy sabablarga ko'ra:

– sog'lig'i tufayli;

ma'muriyat ruxsati bilan:

– ishga chaqirish bo'yicha dam olayotganlar;

o'z hisobidan ta'til:

– korxonada bo'sh turishi tufayli;

– ikki yoshgacha bola tarbiyasi ta'tili;

dekret ta'tili;

– to'la ish haftasi bo'yicha ishlamaslik sharti bilan ishga qabul qilinganlar;

– o'quv ta'tilini o'tayotgan sirtqi talabalar va h.k.

Ro'yxatdagi xodimlar soniga quyidagilar kiritilmaydi:

– bir marotabalik ish bajarish uchun jalb etilganlar;

– asosiy ish faoliyati boshqa korxonada qo'shimcha faoliyat ko'rsatayotganlar;

– ish haqini saqlab qolmaslik sharti bilan boshqa korxonaga vaqtincha ishga yuborilganlar;

– ishdan ajralgan holda o'qishga yuborilganlar (korxonada hisobidan stipendiya oluvchilar).

Ro'yxatdagi xodimlar soni fursatli ko'rsatkichlardir, chunki har kuni ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish sababli, ularning soni o'zgarib turadi. Turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash maqsadida o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni, o'rtacha ishga kelganlar soni, o'rtacha haqiqiy iqtisodiy ishlaganlar soni hisoblanadi:

$$\text{O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni} = \frac{\text{ishga kelganlar} + \text{ishga kelmaganlar soni}}{\text{kalendar kunlar}}$$

O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini hisoblashda kalendar kunlaridagi ro'yxatdagi xodimlar sonining yig'indisi (ishlamagan kunlardagi xodimlar soni bir kun oldingi kundagi ro'yxatdagi xodimlar soni hisoblanadi), kalendar kunlar yig'indisiga bo'linadi.

O'rtacha ishga kelganlar sonini hisoblashda, haqiqiy ishlagan kishi kunlar yig'indisi ish kunlariga bo'linadi.

Ishga kelgan va haqiqiy ishlaganlar orasidagi farq odatda korxonaning aybi bilan, ya'ni: xomashyo, elektr energiya bilan xullas, ish bilan ta'minlab bermasligi sababli bo'lib, u kun davomida yoki ayrim ish soatlarida bo'lishi mumkin.

Bu ko'rsatkichlarni hisoblashni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz:

Avgust 1-dekadasida korxonada xodimlari haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan (kishi hisobida).

3.3.1-jadval

Avqust 1-dekadasida korxonada xodimlari haqidagi ma'lumotlar

Oy kunlari	Ro'yxatda bo'lganlar soni	Ishga kelganlar soni	Kun mobaynida bo'sh turganlar
1	320	295	2
2	322	304	-
3	321	311	-
4	323	312	-
5	325	320	9
dam olish kuni			
6	323	302	-
7	328	314	5
8	323	320	4
9	320	312	-

Aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \text{O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni} &= \frac{320 + 322 + 321 + 323 + 325 * 2 + 323 + 328 + 323 + 320}{10} = \\ &= \frac{3230}{10} = 323 \text{ kishi} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} \text{O'rtacha ishgakelganlar soni} &= \frac{295 + 304 + 311 + 312 + 320 + 302 + 314 + 320 + 312}{9} = \\ &= \frac{2790}{9} = 310 \text{ kishi} \end{aligned}$$

Demak, turli xil sabablarga ko'ra, har kuni o'rtacha 13 kishi ishga kelmagan, kelganlardan ikki kishi kun mobaynida bo'sh turganlar. Umuman har kuni 15 kishi mehnatidan foydalanilmagan.

Korxonada xodimlari harakatini ta'riflash uchun mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Mutlaq ko'rsatkichlarga: ishga qabul qilish aylanmasi, ishdan bo'sh aylanmasi, ortiqcha aylanma kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Agar o'rtacha yillik ro'yxatdagi xodimlar soni xalq xo'jaligida band bo'lganlar sonini hisoblash uchun mo'ljallangan bo'lsa, bu ko'rsatkichni hisoblashda maxrajida korxonada qancha muddat faoliyat ko'rsatishidan qat'inazar yillik kalendar kunlar olinadi.

Masalan, korxonada o'z faoliyatini 31 dekabrda boshlab ro'yxatdagi xodimlar soni 365 kishi bo'lsa:

$$\text{O'rtacha yillik ro'yxatdagi xodimlar soni} = \frac{365 \text{ kishi/kun}}{365 \text{ kun}} = 1 \text{ kishi}$$

Bunday hisoblashdan maqsad, bir necha korxonalarda yil davomida ishlaganlarni qayta-qayta hisobga olmaslikdir.

Korxonada xodimlari harakatini ta'riflash uchun mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mutlaq ko'rsatkichlariga: ishga qabul qilish aylanmasi, ishdan bo'sh aylanmasi, ortiqcha aylanma kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Nisbiy ko'rsatkichlarga: ishga qabul qilish aylanmasi, ishdan bo'sh aylanmasi, qo'nimsizlik ko'rsatkichi, xodimlarning doimiylik ko'rsatkichi kiritiladi.

Umumiy ishga qabul qilish ko'rsatkichini hisoblash uchun umumiy ishga qabul qilinganlar soni o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soniga bo'linadi. Ayrim kategoriyalar uchun o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini hisoblashda shu kategoriyalarga ishga qabul qilinganlar soni va boshqa kategoriyalardan shu kategoriyaga o'tganlar soni yig'indisi shu kategoriya xodimlarining o'rtacha soniga bo'linadi. Odatda, sanoat tarmog'ida ko'rsatkichni davr oxiridagi xodimlar soniga bo'lib ham hisoblanadi. Ishdan bo'sh umumiy ko'rsatkichini hisoblashda, hisobot davrida umumiy ishdan bo'shaganlar soni ko'riladigan davr xodimlari soniga bo'linadi.

Davr boshida sanoatdagi ko'rilayotgan xodimlar soniga bo'lib ham hisoblash mumkin. Ayrim kategoriyalar uchun hisoblanganda o'rganayotgan kategoriyadan boshqa kategoriyalarga o'tganlar ham hisobga olinadi. Qo'nimsizlik ko'rsatkichini hisoblashda ortiqcha aylanma (shaxsiy sabablarga ko'ra bo'shaganlar) o'rtacha yillik xodimlar soniga bo'linadi.

Sanoatda yil boshidagi xodimlar soniga nisbatan ham olish mumkin. Yil davomida doimiy ishlagan xodimlar sonini o'rtacha yillik yoki yil boshidagi xodimlar soniga bo'lish natijasida doimiylik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni hisoblashni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Hisobot yilida korxonada xodimlarining harakati haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan (kishi):

3.3.2-jadval

Korxonada xodimlarining harakati

Yil boshidagi ishchilar soni	360
Yil davomida ishga qabul qilinganlar	38
Boshqa kategoriyalardan ishchilar kategoriyasiga o'tganlar	4
Harbiy xizmatga chaqirish munosabati bilan ishdan bo'shaganlar	4
Nafaqaga chiqish munosabati bilan bo'shaganlar	6
O'z xohishi bo'yicha bo'shaganlar	16
Mehnat intizomini buzish bo'yicha bo'shaganlar	2
Ishchi kategoriyasidan boshqa kategoriyaga o'tganlar	2
Yil davomida doimiy ishlagan ishchilar soni	340

Ishchilar toifasiga qabul qilish aylanmasi:

$$\hat{E}_{k.k.} = \frac{\hat{E}}{O} \times 100 = \frac{42}{366} \times 100 = 11,48\%$$

Ishchilar toifasidan umumiy bo'sh aylanmasi:

$$\hat{E}_b = \frac{B}{O} \times 100 = \frac{30}{366} \times 100 = 8,2\%$$

Qo'nimsizlik ko'rsatkichi:

$$\hat{E}_k = \frac{\text{ortiqcha aylanma}}{\bar{O}} \times 100 = \frac{18}{366} \times 100 = 4,92\%$$

Doimiylik ko'rsatkichi:

$$\hat{E}_f = \frac{\text{yil davomida doimiy ishlaganlar soni}}{\bar{O}} \times 100 = \frac{340}{366} \times 100 = 92,9\%$$

Ko'rinib turibdiki, ortiqcha aylanma ko'rsatkichi 4,92%ni tashkil etib, bu degani, har o'rtacha 100 ishchidan beshtasi o'z xohishi bilan yoki mehnat intizomini buzish natijasida ishdan bo'shagan, demak intizom borasida ishchilarning o'z ishdan manfaatdor bo'lmasligi sababli, bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, ma'muriyat o'z xohishi bilan bo'shaganlar sababini o'rganish ustida ish olib borishlari lozim. Xodimlar harakatini o'rganish maqsadida quyidagi absolyut ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Umumiy ishchi toifasiga kiritilganlar soni (K)=38k + 4k = 42 kishi.
2. Umumiy ishchi kategoriyasidan chiqqanlar soni
(B)=4k+6k+16k+2k+2k=30kishi:
 - zaruriy aylanma=4k+6k+2k=12kishi;
 - ortiqcha aylanma=16k+2k=18kishi.

Xodimlar harakati nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash uchun kerak o'rtacha yillik ishchilar sonini hisoblaymiz, buning uchun:

- yil oxiridagi ishchilar soni $T_1 = T_0 + K - B$, $T_1 = 360 + 42 - 30 = 372$ kishi;

- o'rtacha yillik ishchilar soni $\bar{O} = \frac{\bar{O}_1 + \bar{O}_0}{2} = \frac{360 + 372}{2} = 366$ kishi.

Qisqacha xulosalar

Iqtisodiy faol aholiga tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun o'z mehnatini taklif qiladiganlar kiritiladi. «Iqtisodiy faol aholi» tushunchasi o'rnida «ishchi kuchi» va «mehnat resurslari» tushunchalari ishlatiladi. Ammo shuni nazarda tutish kerakki, «mehnat resurslari» toifasi yuqorida aytilgan toifalardan faqat «bandlar» va «ishsizlar»ningina emas, balki mehnatga layoqatli yoshdagi o'quvchilar, uy bekalari, har xil sabablarga ko'ra, iqtisodiy faol aholi hisoblanmaydigan mehnatga layoqatli boshqa shaxslarni qamrab olishi tufayli farqlanadi.

BMXT-93 alohida shaxslarni haqiqiy yoki potensial bandlikga ko'ra tasniflaydi. Band bo'lgan aholi nafaqat absolyut miqdorlarda, balki nisbiy miqdorlarda ham o'rganiladi, chunki makon va zamonda qiyoslashda mana shu nisbiy miqdorlardan foydalaniladi.

Xalq xo'jaligida band bo'lganlarga turli xil iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lganlar, korxonalar, tashkilot, muassasalar, ya'ni yuridik shaxslarda va shu bilan fizik band bo'lganlar ham kiritiladi. Demak, umumiy band bo'lganlarni o'rganish

mikrodarajada, ya'ni korxonada, firma va hokazolarda band bo'lganlarni o'rganishdan boshlanadi. Korxonada band bo'lganlarni o'rganish maqsadida ro'yxatdagi xodimlar soni tuziladi, bu ko'rsatkich fursatli bo'lib, o'zgarishiga xodimlar harakati ta'sir etadi. Bu harakatni o'rganish maqsadida absolyut va nisbiy harakat ko'rsatkichlari hisoblanadi. Turli xil iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llaniladigan o'rtacha ro'yxatdagi, o'rtacha ishga kelganlar va o'rtacha haqiqiy ishlaganlar soni hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ish kuchi haqida tushuncha.
2. Mehnat resurslari balansi va uning tarkibi.
3. BMXT-93ga binoan band bo'lganlarning tasnifi.
4. YOllanma xodimlar haqida tushuncha va ularning tarkibi.
5. Ishsizlar haqida tushuncha.
6. Iqtisodiy faol aholining tasnifi.
7. Bandlik va ishsizlik nisbiy ko'rsatkichlarini hisoblash.
8. Ro'yxatdagi xodimlar soniga kimlar kiritiladi?
9. Nima maqsadda va qanday usullarda o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni hisoblanadi?
10. Ish kuchi harakati qanday ko'rsatkichlar yordamida o'rganiladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. www.euireland.ie
9. www.euireland.ie
10. www.cec.org.uk
11. www.eurunion.org
12. www.europarl.ie

IV bob. ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIF

4.1. Ishchi kuchining taklif ko'rsatkichlari

Ishchi kuchi taklifini statistik aks ettirish maqsadida potensial, haqiqiy va qo'shimcha taklif kategoriyalaridan foydalaniladi.

Potensial taklif hajmi mehnatga layoqatli aholining butun aholi soni va tarkibi, sog'lig'ining holati va mehnatga layoqatlilik darajasi, aholining hududiy joylashishi va joydan-joyga ko'chishi, shuningdek, shu mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq turli belgilari bo'yicha soni va tarkibiy tuzilishi ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi.

Haqiqiy taklif hajmi iqtisodiy faol aholining soni va tarkibiy tuzilishi ko'rsatkichlari yordamida aks ettiriladi. Iqtisodiy faol aholining soni ishchi kuchi taklifining dolzarb chegarasi hisoblanadi. Haqiqiy taklif hajmida talab qamrab olgan, band aholining soni va tarkibiy tuzilishi bilan ifodalanadigan, qoniqtirilgan taklif ajratib ko'rsatiladi.

Band aholini ta'riflash maqsadida guruhlashning quyidagi tasniflashidan foydalaniladi, ulardan muhimlari:

- a) jins va yosh bo'yicha;
- b) malaka va ma'lumot darajasi bo'yicha;
- v) xodim foydalanadigan, ustama va imtiyozlarni belgilaydigan ish staji bo'yicha;
- g) daromadlar darajasi chegaralari asosida amalga oshiriluvchi daromadlar darajasi bo'yicha;
- d) tarmoq tasnifi bazasida amalga oshiriladigan iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha;
- e) fuqarolik bo'yicha (shu mamlakat fuqarolari va xorijiy fuqarolar);
- j) shartnoma bo'yicha ishlovchi xorijiy fuqarolar uchun bandlik turlari bo'yicha (korxonalar va tashkilotlar mehnat jamoalari tarkibida; pudrat shartnoma (kontrakt)larini amalga oshirish uchun jalb qilingan xorijiy yuridik shaxslar tarkibida; jismoniy shaxslarda);
- z) XTST ga ko'ra, xodimlarning 10 asosiy guruhini qamrab oladigan ijtimoiy - kasbiy tarkib bo'yicha:
 1. Qonun chiqaruvchilar, katta davlat xizmatchilari va boshqaruvchilar.
 2. Mutaxassis - (fizika, matematika va texnika fanlari; biologiya va tibbiy fanlar sohalarida; ta'lim va iqtisodiyot, biznes, huquq, axborot, ijtimoiy fanlar sohalaridagi boshqa mutaxassislar, shuningdek, yozuvchi, rassom, artist va boshqalar).
 3. YOrdamchi xodimlar.
 4. Xizmatchilar (idora xizmatchilari va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari (kassirlar va bank xizmatchilari, axborot byurolari xizmatchilari).
 5. Xizmat ko'rsatish sohasi va savdo korxonalar xodimlari (shaxsiy xizmat va qo'riqlash sohasi xodimlari; sotuvchilar, tovar va modellarni namoyish qilib ko'rsatuvchilar).

6. Qishloq xo'jaligi, baliqchilik va baliq ovlashning malakali xodimlari (bozorga yo'naltirilgan va shaxsiy iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan).

7. Sanoatning malakali ishchilari va yaqin kasblar ishchilari (qazib oluvchi va qurilish tarmoqlari, metallurgiya va metalga ishlov berish, matbaachilik (poligrafiya) va hunarmandchilik ishlab chiqarishlari ishchilari va boshqa ishlab chiqarishlar ishchilari).

8. Sanoat qurilma va mashinalarining operator va yig'uvchilari (operator, yig'uvchi va transport vositalari haydovchilari).

9. Malakaga ega bo'lmagan xodimlar.

10. Qurolli kuchlar.

Ba'zi mamlakatlarda xodimlarning ayrim toifalari turlicha talqin qilinadi. Ishsizlar alohida mustaqil bo'limga ajratiladi yoki oxirgi ish bo'yicha taqsimlanadi.

Qo'shimcha taklif hajmi, ya'ni talab bilan qamrab olinmagan taklif, ish izlayotgan shaxslar umumiy soni va sifat tarkibi, ishsizlarning umumiy soni, ro'yxatga olingan ishsizlar soni, ishsizlik nafaqalarini olayotganlar soni, shuningdek, bu ko'rsatkichlarning dinamikasi bilan ifodalanadi.

Ish izlayotgan shaxslar tushunchasi anchagina keng, chunki unga mehnat faoliyati bilan band bo'lmagan fuqarolardan tashqari hozirgi kunda band bo'lgan, mehnat birjasiga oldinda turgan ishdan bo'shatilish, yollash muddatining tugashi yoki asosiy ish vaqtdan bo'sh vaqtda ishlash ishtiyoqi tufayli murojaat qilgan shaxslar ham kiritiladi.

Ishsizlik nafaqalarini to'lash uchun (ma'lum shart-sharoitlarda fuqarolar sug'urta doirasida bunday huquqqa ega bo'lishadi) mehnat birjasida doimo ishsiz sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari talab etiladi. Bunday ro'yxatdan o'tish mazkur nafaqalarni to'lashga o'z-o'zidan olib kelmaydi. Ishsiz deb tan olinganlar qatoridan taklif etilgan muvofiq keluvchi ishni asossiz rad etgan, qayta ro'yxatdan o'tish tartibiga va shu kabilarga rioya etmagan shaxslar nafaqa olmaydilar. SHuning uchun ishsizlik bo'yicha nafaqa oluvchilar soni ro'yxatga olingan ishsizlar sonidan kam bo'ladi.

Qo'shimcha ish kuchi taklifiga ta'rif berishda murojaat qiluvchilar umumiy sonining mehnatga layoqatli aholi yoki band bo'lganlar sonining yig'indisiga, shuningdek, sifatli ta'rifning (masalan, ishchi kasbi yoki xizmatchi lavozimiga ega bo'lganlar, mehnat faoliyati bilan band bo'lganlar, shu jumladan, ayollar) o'ziga xos belgilari bilan ajralib turadigan murojaat qiluvchi alohida olingan guruhdagi shaxslar soni, ularning band ishchi va xizmatchilar orasidagi soniga hisoblangan ishga joylashtirish masalasi bo'yicha murojaat intensivligi ko'rsatkichi qiziqishga arziydi.

Ishsizlarning mavjudligi va sonining dinamikasi qator sabablarga bog'liq bo'ladi. Bu sabablar orasida iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishi, ishsizlik nafaqalarini berish shart-sharoitlari va uni olishning davomiyligi, xorijiy region ishchi kuchining borligi va uning iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini, shuningdek, iqtisodiyotda sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlarni alohida aytib o'tish kerak.

Mehnat bozoridagi talab va taklif nisbatani belgilovchi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va siyosiy shart-sharoitlarga ko'ra, ishsizlik turli shakllarda bo'lishi mumkin. Analitik maqsadlarda ishsizlik qisqa muddatli va uzoq muddatli ishsizlikka ajratiladi. BMT tavsiyalariga ko'ra, iqtisodiy faoliyatning davriy xarakteriga bog'liq bo'lgan 1 yildan ortiq muddatdagi ishsizlik uzoq muddatli ishsizlik hisoblanadi. Uzoq muddatli ishsizlik tuzilmaviy, kon'yunktur va ishchi kuchiga sarflar bilan bog'liq ishsizlikka ajratiladi.

Tuzilmaviy ishsizlik – ishchi kuchi talab va taklifi miqdorini kasbiy va geografik nomuvofiqligi oqibati hisoblanadigan ishsizlik.

Kon'yunktur ishsizlik – butun iqtisodiyot doirasida tovar hamda xizmatlarga talabning pasayishi (kon'yunktur o'zgarishlar) sababli ishchi kuchiga talabning kamayishi oqibatida paydo bo'ladigan ishsizlikdir.

Ishchi kuchiga sarflar bilan bog'liq ishsizlik mehnat sarflari darajasining o'ta yuqoriligidan kelib chiqadi, qoidaga ko'ra, eng kam ish haqi darajasining yuqoriligi ish beruvchilarni ish joylarini qisqartirishga majbur qiladi. Qisqa muddatli ishsizlikka texnologik, friksion va mavsumiy ishsizlik kiritiladi.

Texnologik ishsizlik – iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan ishsizlik.

Friksion ishsizlik – yangi ish o'rni yoki turar joyni izlash maqsadida ishdan ixtiyoriy ketish bilan bog'liq ishsizlik.

Mavsumiy ishsizlik – faqat ma'lum davrlarda (masalan, qishloq xo'jaligi ishlari qizg'in davrda) ishga ega bo'ladigan, yilning boshqa davrlarida band bo'lmaydigan shaxslarga xos ishsizlik.

Hozirgi kunda ishsizlikning mavsumiy o'zgarib turishi ishsizlik darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu nuqtai nazardan, iqtisodiyot tarmoqlarining uch guruhini qamrab oladi:

- tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lgan tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, baliqchilik, ovchilik, qurilish);
- xomashyo bilan ta'minlashda mavsumiy o'zgarishlarga bog'liq tarmoqlar (qishloq xo'jaligi va baliq ovlash mahsulotlarini qayta ishlash);
- talab mavsumiy xarakterda bo'ladigan tarmoqlar (sport anjomlari, kiyim, poyafzal ishlab chiqarish, turizm va boshqalar).

Mavsumiylik omili muhim rol o'ynaydigan tarmoqlarda band bo'lganlar soni va ishlab turgan xodimlar ish vaqti davomiyligida o'zgarishlar bo'lib turadi.

Tuzilmaviy o'zgarishlar iqtisodiyotda hozirgi kunda uzluksiz bo'lib turibdi, bu yangi tavsif va parametrlil ishchi kuchiga ehtiyojni keltirib chiqaradi. SHuning uchun ishchi kuchi taklifini tuzilmaviy o'zgartirish uni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish va ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari, mamlakatning turli mintaqalari o'rtasida qayta taqsimlashga yordam berish zarurligini taqozo etadi.

Keyingi yillarda ishsizlikning o'sishiga olib keladigan ko'pgina omillar amalda bo'lib turibdi. Bu band aholining daromadlarini qadrsizlantiradigan, uning to'lovga qodir talabini pasaytiradigan va shu orqali tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan inflyasiya; iqtisodiy faoliyatga ayollar va

yoshlarning zo'r berib jalb etilishi; bozorda malakali mutaxassislarning ko'payib ketishi bo'sh joylarning etishmasligi tufayli oliy ma'lumotli mutaxassislarga talabni kamayishi; davlatning ijtimoiy dasturlarga mo'ljallangan xarajatlari keskin kamayib ketishi oqibatida xizmat sohasida ishchi kuchiga talabning kamayishi va boshqalardir.

Ishsizlar soni va tarkibiy tuzilish ko'rsatkichlari qo'shimcha ishchi kuchi taklifini tavsiflashga xizmat qiladi. Statistika ishsizlar umumiy sonining dinamikasini o'rganadi va kelgusi davrlar uchun bashorat qiladi. Ishsiz aholi tarkibiy tuzilishini o'rganish maqsadida qator guruhlashlardan foydalaniladi. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

a) jins va yoshga ko'ra, u ishsizlikning yoshlar va ayollar mehnat potensialidan foydalanishga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishga imkon beradi (qoidaga ko'ra, bunda 24 yoshgacha bo'lgan, yoshlar guruhiga kiritiladigan aholi ajratiladi);

b) ma'lumot darajasiga ko'ra;

v) ishdan bo'sh shah sabablariga ko'ra;

g) fuqarolik bo'yicha, bu ish mamlakatdagi ishsizlar umumiy sonida chet ellik ishsiz ishchilar soni va ulushini aniqlash imkonini beradi;

d) ishsizlik nafaqasining olinishiga ko'ra, bu ishsizlarni nafaqa oladigan va olmaydiganlarga ajratiladi;

e) nafaqa olmaydigan ishsizlarning kun kechirish mablag'lari manbalari bo'yicha, bunda qarindoshlar mablag'lari yoki mustaqil jamg'armalar, tasodifiy ishlab topilgan pul, jamoat ishlari ko'rsatiladi;

yo) jamoat ishlaridagi ishtirokka ko'ra, ularda ishtirok etadiganlar va ishtirok etmaydiganlarga ajratiladi;

j) ishsizlikning davomiyligiga ko'ra, odatda quyidagi uchta guruh ajratiladi:

- 3 oygacha;

- 3 oydan 12 oygacha;

- bir yildan ortiq (turg'un ishsizlik);

z) ishsizlik nafaqasini olishning davomiyligiga ko'ra;

i) ish topilgan holatda, istak bildirilgan ish soatlari soni bo'yicha to'la yoki qisman ishlash istagida bo'lgan ishsizlar ajratiladi.

4.2. Ishchi kuchiga talab ko'rsatkichlari

Ishchi kuchiga talab o'rganilganda umumiy, samarali va qoniqtirilmagan talab ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Umumiy talab shu mamlakatda umumiy bor bo'lgan ish joylari va uning tuzilmasi bilan ifodalanadi. Samarali talab qoniqtirilgan taklif analogiyasi bo'lib, iqtisodiyotda band bo'lganlar soni va tarkibi bilan ifodalanadi.

Umumiy va samarali talab orasidagi farq qoniqtirilmagan talab bo'lib, uning asosiy ko'rsatkichlari bo'sh ish joylari va egallanmagan lavozimlarni turli belgilar (iqtisodiyot tarmoqlari, kasblar va talab etiladigan malaka, taklif etilayotgan

bandlik davomiyligi, taklif etilayotgan ish haqi darajasi va shu kabilar) bo'yicha mavjudligi, harakat hamda tarkibi haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Mehnat bozori axborot ta'minotining hozirgi tizimida ishchi kuchiga talab statistikasi eng zaif bo'g'in hisoblanadi. Bo'sh joylar sonini aniqlash statistika ma'lumotlarining potensial manbalari quyidagilar hisoblanadi: davlat va xususiy bandlik xizmatlari tomonidan berilgan bo'sh joylarning borligi to'g'risidagi ma'lumotlar; gazeta va jurnallarda e'lon tariqasida bosib chiqarilgan ish to'g'risidagi takliflarni ro'yxatga olish; ish beruvchilarni statistik tekshiruvdan o'tkazish. Ammo hozirgi kunda ishchi kuchi talab va taklifning muvozanatlanganligini tahlil qilish, garchi, korxonalar va tashkilotlar bandlik xizmatiga xabar berilgan bo'sh joylar (ya'ni yollash shart-sharoitlarida ishchi kuchiga talab) to'g'risidagi axborot oshkora kamaytirib ko'rsatilganligi oldindan ma'lum bo'lsada, qoidaga ko'ra, bo'sh ish joylari hamda egallanmagan lavozimlar soni va harakati to'g'risidagi ma'lumotlar asosida tashkil qilinadi.

SHuning uchun, bu ma'lumotlarni sharhlashda, bu ko'rsatkich iqtisodiyotning ishchi kuchiga umumiy ehtiyojini emas, balki ish beruvchilar mehnat birjasiga uning ishga joylashtirish sohasidagi vositachilik xizmatidan foydalanish maqsadida murojaat qilgan holatlarni o'lchashini nazarda tutish kerak. Qoidaga ko'ra, rasmiy bo'sh ish joylarining soni, ularning iqtisodiyotdagi haqiqiy sonidan kamroq bo'ladi. SHunga ko'ra, bu sohada aniq axborotga ega bo'lish uchun qo'shimcha ishlash (tekshirishlar, anketa tadqiqotlari asosida) zarur.

Korxonalar va tashkilotlardan bevosita yig'iladigan ma'lumotlar asosida talab statistikasini o'rganishni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha axborot olishni ko'zda tutib tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- hisobot davri boshiga bo'sh ish joylari (talab etiladigan xodimlar)ning soni;
- yil boshidan band etilgan bo'sh ish joylari;
- hisobot yili oxiriga bo'sh ish joylari (talab etiladigan xodimlar)ning soni;
- yilning yaqin chegarasidagi qo'shimcha ish joylari (kutilayotgan bo'sh joylar)ning soni.

Statistika bu ma'lumotlardan ishchi kuchining qo'shimcha taklifi va talabi o'rtasidagi nisbatni ifodalashda foydalanadi. Qoidaga ko'ra, mehnat birjalarida ro'yxatga olingan bo'sh joylar sonining dinamikasi ishsizlar soni dinamikasiga qarama-qarshi bo'ladi. Barcha mamlakatlarda ishsizlar soni ortib, bo'sh ish joylari va egallanmagan lavozimlar soni kamayib boradi.

Band bo'lganlar va ishsizlar soni, tuzilmasi va dinamikasi, shuningdek, bo'sh joylarning borligi va tuzilmasini o'rganishdan tashqari statistika bandlikni kengaytirish va ishsizlikni qisqartirishga yo'naltirilgan tadbirlarning miqdoriy tomonini ham aks ettiradi. Bu tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- qo'shimcha ishchi kuchini yollagan holatlarda tadbirkorlar uchun ijtimoiy to'lovlarni pasaytirish;
- ishsizlar yoki singan tadbirkorlarga kichik oilaviy korxonalarni tashkil etishlarida davlat yordamini ko'rsatish (bunday hollarda ular pul yordami va bepul maslahatlar olishadi);

- xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, bu davlat tomonidan bepul yoki kredit ko'rinishida yohud tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladi, buning uchun tadbirkorlarga davlat ularga soliqlarni kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozlarni beradi;

- ishsizlarni kun kechirish uchun mablag'lar bilan ta'minlashga maxsus mo'ljallangan jamoat ishlarini tashkil etish;

- ichki va tashqi immigrasiyada yordam ko'rsatish;

- qoloq joylarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslarning ishdan ketishlarini rag'batlantirish;

- muvofiq keluvchi ma'lumot va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoshlarni ishga joylashtirishni rag'batlantirish.

Mehnat bozorining bandlik va ishsizlik darajasiga, mehnatga haq to'lash darajasi va ayrim mamlakatlarning geografik holatiga bog'liq kon'yunkturasini, birinchi navbatda, mehnat bozoridagi keskinlikning umumiy xususiy koeffitsientlari bilan ifodalanadi.

Mehnat bozoridagi keskinlikning umumiy koeffitsienti butun mamlakat bo'yicha ishchi kuchi taklifi (ish izlayotgan yoki ishsiz shaxslar soni)ning unga talab (bo'sh joylar soni)ga nisbati tarzida hisoblanadi va 1 bo'sh joy hisobiga ish izlayotganlar yoki ishsizlar sonini ifodalaydi. Mamlakat mintaqalari, iqtisodiyot tarmoqlari, kasblar, ishlar va shu kabilar bo'yicha mehnat bozoridagi keskinlikning xususiy koeffitsientlari ham xuddi shu yo'sinda hisoblab chiqiladi.

Mehnat bozori kon'yunkturasini o'rganishda bandlik xizmatlarining ishga joylashtirilganlar soni, ularning sifat tarkibi, dinamikasi, ishga joylashtirish koeffitsienti (ish izlayotgan shaxslar yoki ishsizlar sonida ishga joylashtirilgan fuqarolar nisbati), ishga joylashtirishni kutishning davomiyligi va shu kabilar bilan ifodalanadigan faoliyati natijalarining ko'rsatkichi alohida o'rganadi.

Xodimlarning nisbiy tayyorgarligi to'g'risidagi ma'lumotlar mehnat bozori kon'yunkturasini tahlil qilishda hamda mehnat bozoridagi talab va taklifning nomuvofiqligi sabablarini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ishchilarni bevosita korxonalarda, hunar-texnika ta'limi tizimida va bandlik xizmatlari orqali kasbiy tayyorlash sohasidagi ishning yaxshilanishi, mehnat bozoridagi jiddiylikni anchagina kamaytirgan bo'lardi, chunki kasbiy tayyorgarlikning yaxshi yo'lga qo'yilgan tizimi ishchilarning raqobatbardoshligini oshiradi, mavjud yoki yangi tashkil etilgan ish joylarini va ish izlayotgan shaxslarni uchrashtirishni osonlashtiradi.

Aholining iqtisodiy faolligini tasniflashda bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan tashqari, hozirgi kunda noto'liq bandlikni o'rganish hamda uni statistikada aks ettirish muammosi dolzarb bo'lib bormoqda. Ko'rinadigan noto'liq bandlik, asosan statistik tushuncha bo'lib, uni ishchi kuchini tadqiq qilish va boshqa tadqiqotlar doirasida bevosita o'zgartirish mumkin. U bandlik hajmining etarli emasligini (noto'liq ish kuni, noto'liq ish haftasini) aks ettiradi.

Ko'rinmaydigan noto'liq bandlik – ko'proq analitik tushuncha bo'lib, mehnat resurslarining noto'g'ri taqsimlanishi yoki mehnat va boshqa ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi chuqur muvozanatsizlikni aks ettiradi. Ko'rinmaydigan noto'liq bandlik daromadning pastligi, malakadan etarlicha foydalanmaslik va past unumdorlik bilan ifodalanadi.

Ko'rinadigan noto'liq bandlikni ta'riflashda band aholi sonini ish vaqtining davomiyligi (haftadagi ish soatlari yoki kunlarining soni) bo'yicha guruhlash juda muhim hisoblanadi.

Jumladan, XMT haftadagi ish soatlarining miqdori bo'yicha bandlar sonini quyidagicha guruhlashni tavsiya qiladi:

- 15 soatdan kam;
- 15 soatdan 31 soatgacha;
- 32 soatdan 34 soatgacha;
- 35 soatdan 39 soatgacha;
- 40 soatdan 44 soatgacha;
- 45 soatdan 47 soatgacha;
- 48 soat va undan ortiq.

Bandlar sonini haftadagi ish kunlari soni bo'yicha guruhlash quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

- 1 kun;
- 2 kundan 4 kungacha;
- 5 kun va undan ortiq.

Ko'rinadigan noto'liq bandlikni tahlil qilishda noto'liq bandlar sonini to'la ish vaqtida band bo'lgan shaxslar soniga qiyoslash, muvofiq keluvchi ulushlarni esa iqtisodiyot tarmoqlari va kasb guruhlari bo'yicha alohida hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Ko'rinadigan noto'liq bandlikni etarlicha foydalanilmagan ish vaqti ko'rsatkichi bo'yicha o'lchash uchun ish kuni, haftasi, yilining haqiqiy davomiyligi (T_{haq}) shu toifa xodimlariga belgilangan (normal) ish kuni, haftasi, yilining davomiyligi (T_{bel}) bilan taqqoslash yo'li bilan quyidagi formula bo'yicha belgilangan ish vaqtidan foydalanish koeffisientini olish lozim bo'ladi:

$$\hat{E}_{\text{foy}} = \frac{O_{\text{hak}}}{O_{\text{bel}}}$$

Qoidaga ko'ra, belgilangan ish vaqtining 80%dan kamroq ishlaydiganlar noto'liq band bo'lgan shaxslar qatoriga kiritiladi.

Belgilangan ish vaqti davomiyligi bilan uning haqiqiy davomiyligi o'rtasidagi farq yo'qotilgan ish vaqti ko'rsatkichi hisoblanadi.

Noto'liq bandlikni haqiqiy band bo'lgan xodimlar sonini (S_x) mehnat unumdorligining o'rtacha darajasi va ishlab chiqarishning o'rtacha texnik darajasida (S_z) mazkur korxonaga uchun zarur xodimlar soniga qiyoslab hisoblash yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Agar ishlab chiqarish hajmi Q , o'rtacha mehnat unumdorligi W orqali belgilansa, zarur xodimlar soni quyidagiga teng bo'ladi:

$$\dot{O}_z = \frac{Q}{W}$$

T_x bilan T_z o'rtasidagi farq (agar u ijobiy bo'lsa) yashirin noto'liq bandlikni yoki aksincha, ishchi kuchini ekspluatasiya qilish darajasi (agar u salbiy bo'lsa) yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Noto'liq bandlik tavsiflanar ekan, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bir xodimga to'g'ri keladigan ish vaqtining o'rtacha haqiqiy hajmi ham aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T = \frac{Tn}{n}$$

Bunda: T - ish vaqtining davomiyligi; n - ish vaqtining davomiyligi turlicha bo'lgan guruhlardagi xodimlar soni.

Iqtisodiyotning norasmiy sektori tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda band bo'lgan birliklar yig'indisi bo'lib, uning asosiy maqsadi shu birliklarga aloqador bo'lganlarni ish va daromad bilan ta'minlashdir.

Iqtisodiyot norasmiy sektoridagi bandli xalqaro statistikasining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- norasmiy sektorning tarkibi to'g'risida axborot olish va uning segmentlarini tashkil etuvchilarni aniqlash maqsadida tuzilmaviy xarakteristikalariga bog'liq tarzda guruhlangan norasmiy sektor birliklarining umumiy soni;
- norasmiy sektor birliklarida band bo'lganlarning umumiy soni, bunga ularning ijtimoiy-demografik tavsiflari, bandlik va mehnat shart-sharoitlari ko'rsatkichlari ham kiritiladi;
- norasmiy sektordagi ishlab chiqarish hajmi va yaratilayotgan daromad.

Norasmiy sektorning ishlab chiqarish birliklari uy korxonalariga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Ularda asosiy vositalar va boshqa faollar tom ma'nodagi ishlab chiqarish birliklariga emas, ularning egalariga tegishli bo'ladi, egalik qiluvchilar tavakkal qilib, zarur moliyaviy mablag'larni o'zlari qidirib topishga majbur bo'ladilar, ishlab chiqarish faoliyatiga aloqador bo'lgan har qanday qarz va majburiyatlarga shaxsan javobgar bo'lishadi. Ishlab chiqarishga qilingan sarf-xarajatlarni ko'pincha uy xo'jaligiga qilingan sarf-xarajatdan farqlash qiyin bo'ladi. SHuningdek, asosiy vositalar (masalan, bino va transport vositalari)dan navbati bilan ishlab chiqarish va shaxsiy maqsadlarda foydalaniladi.

Norasmiy sektor ishlab chiqarish birliklarining faoliyati doimo ham soliqlar va ijtimoiy ta'minot badallarini to'lashdan atayin qochish maqsadida, mehnat yoki boshqa qonunchilikni buzib amalga oshirilmaydi. SHuning uchun norasmiy sektor faoliyati tushunchasini yashirin ishlab chiqarish faoliyatidan farqlash lozim.

Norasmiy sektorda band bo'lganlar qatoriga hisobot davri mobaynida norasmiy sektorning kamida bir birligida band bo'lganlar, ularning maqomi, bu ularning asosiy yoki qo'shimcha ishlari hisoblanish-hisoblanmasligidan qat'inazar kiritiladi.

Xalqaro mehnat bozori statistikasida markaziy o'rinni egallovchi ishchi kuchi qiymatining ko'rsatkichi geografik, tarmoq va kasbiy (professional)

jihatlarda ishchi kuchining harakatchanligi (mobilligi)ga ta'sir etishda birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi sababli ishchi kuchining talab va taklifi nisbatiga, shuningdek, mehnat bozorida shakllanadigan vaziyatga bevosita bog'liq bo'ladi. "Ishchi kuchi qiymati" kategoriyasi faqat bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlarida mavjud bo'ladi. Markaziy rejalashtiriladigan iqtisodiyotda bu kategoriya o'rnida faqat mehnat haqi ko'rsatkichidan foydalanilgan. Sababi shundaki, mehnatga haq to'lash ish haqini belgilashning markazlashgan tizimi bo'yicha aniqlangan va amalda ishlab chiqarish natijalariga bog'liq bo'lmagan.

Qisqacha xulosalar

Bozor munosabatiga o'tish sharoiti bilan yangi paydo bo'lgan ko'rsatkichlardan biri ish kuchiga talab va taklif ko'rsatkichlaridir. Ish kuchi taklifi: potensial, haqiqiy va qo'shimcha kategoriyalarga bo'linadi. Potensial taklif – mehnatga layoqatli aholining barcha aholi soni va tarkibi, sog'lig'i holati, mehnatga layoqatlilik darajasi, hududiy joylashishi, migrasiyasi va shu kabi turli belgilar bo'yicha tarkibiy tuzilish ko'rsatkichlari yordamida o'rganiladi.

Haqiqiy taklif – iqtisodiy faol aholining soni va tarkibiy tuzilishi ko'rsatkichlari yordamida aks ettiriladi. Haqiqiy taklif hajmida talab qamrab olgan, band aholining soni va tarkibiy tuzilishi bilan ifodalangan qoniqtirilgan taklif alohida ko'rsatiladi. Xalqaro taklif standartiga ko'ra o'n asosiy guruh bo'yicha tasniflanadi.

Qo'shimcha taklif – bu qoniqtirilmagan taklif bo'lib, ish izlayotgan shaxslar umumiy soni va sifat tarkibi bo'yicha o'rganiladi.

Ish kuchiga talab – umumiy, samarali va qoniqtirilmagan talab ko'rsatkichlari yordamida o'rganiladi. Umumiy talab mamlakatda bor bo'lgan ish joylari va uning tuzilmasi bilan ifodalanadi. Samarali talab qoniqtirilgan taklif analogiyasi bo'lib, iqtisodiyotda band bo'lganlar soni va tarkibi bilan ifodalanadi. Umumiy va samarali talab o'rtasidagi farq qoniqtirilmagan talab bo'lib, uning asosiy ko'rsatkichlari bo'sh ish joylari va egallanmagan lavozimlarni turli belgilar bo'yicha mavjudligi, harakati va tarkibi haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi. Bugungi kunda talab statistikasi chuqur o'rganilmagan bo'lib hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ish kuchi taklifi haqida tushuncha va uning kategoriyalari.
2. Band aholi tasnifi.
3. XTSTga ko'ra asosiy o'n guruh.
4. Ishsizlik, uning turlari va o'rganish yo'nalishlari.
5. Ish kuchiga talab va uning asosiy kategoriyalari.
6. XMTga binoan haftadagi ish soatlari miqdori bo'yicha bandlini guruhlash.
7. Ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichining mohiyati.
8. Iqtisodiyot norasmiy sektoridagi bandli xalqaro statistikasi asosiy ko'rsatkichlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. www.euireland.ie
9. www.cec.org.uk
10. www.eurunion.org
11. www.europarl.ie

V bob. ISH VAQTI STATISTIKASI

5.1. Ish vaqti o'lchov birliklari

Ish kuchidan to'laroq foydalanish maqsadida ish vaqti o'rganiladi. Agar mehnat uning davomiyligi bilan o'lchansa, ish vaqti esa kalendar vaqtning bir qismi bo'lib, ishchining shu kalendar vaqtida ishlagan vaqtini ifodalaydi. Kalendar vaqt sekund, minut, soat, kun, hafta, oy va yillarda o'lchansa, ish vaqti esa, kishiG'sekund, kishiG'minut, kishiG'kun, kishiG'hafta, kishiG'oy, kishiG'yil o'lchov birligi bilan o'lchanadi.

Kishi/sekund, kishi/minut o'lchov birligi ko'proq mehnatni normlashtirsa, xronometraj o'tkazish, ish kunini suratga olish, avomatlashtirilgan ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Amaliyotda ko'proq kishi/kun va kishi/soat o'lchov birliklaridan foydalaniladi.

Ishlagan kishiG'kun – ishchining ishga kelib tushgan kuni hisoblanadi. U qisqartirilgan (imtiyozli) yoki ustama ishlashdan qat'i-nazar ishlangan kishiG'kunlar hisobiga kiritiladi.

Ishlagan kishi/kun hisobiga quyidagilar kiritiladi:

1. Mazkur kunda korxonada ishlagan haqiqiy ishchilar kishiG'kunlari;
2. Korxonada tashqarisida, korxonada yo'llanmalari bilan ishlagan kishiG'kun kunlari, shu jumladan, xizmat safaridagilar ham.
3. Asosiy ish joyida bo'sh turish bo'lganligi sababli, boshqa ishlarga jalb etilganlar.

Ishlagan kishilar kuniga nisbatan ishlagan kishilar soati aniqroq o'lchov birligi bo'lib, haqiqiy ishlagan ish vaqti, o'lchov birligi hisoblanadi.

Ishlagan kishilar soati ham belgilangan, ham ustama ishlagan haqiqiy soatlarini ifodalaydi. Ishlagan kishi soatlarga bo'sh turishlar, ishga kech qolish, erta ketish, qonuniy yoki noqonuniy ishlanmagan soatlar kiritilmaydi. Albatta, kishiG'soat ham kamchiligi mavjud ish soati ichidagi yo'qotishlarni aniq hisobga olmaydi.

Kishi/hafta, kishi/oy, kishi/yil o'lchov birliklari o'rniga o'rtacha haftalik, o'rtacha oylik, o'rtacha yillik ishchilar soni iborasi ishlatiladi.

5.2. Ish vaqti fondlari va ulardan foydalanish

Yuqorida ish vaqti o'lchov birliklari ko'rib chiqildi. Shu o'lchov birliklari yordamida jami ish vaqti fondlari hisoblanadi.

Kalendar vaqt fondi ikki usul bo'yicha hisoblanadi:

- kalendar vaqt fondi q ishga kelgan kishi kunlar + ishga kelmagan kishi kunlar;

- kalendar vaqt fondi q kalendar kunlar \times o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni.

Tabel vaqt fondi kalendar vaqt fondidan bayram va dam olish kunlari fondiga kamroqdir.

Maksimal imkoniyatli vaqt fondi tabel vaqt fondidan navbatdagi ta'til kunlari fondiga nisbatan kamroqdir.

Ish vaqti fondlarini quyidagi namunaviy masalada ko'rib chiqamiz.

Masala:

Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz.

5.2.1-jadval

Ish vaqtidan foydalanish ko'rstkichlari

O'rtacha ro'yxatdagi ishchilar soni	200
Ishga kelgan va kelmagan kishi kunlar	73000
Haqiqiy ishlangan kishi kunlari	53200
Bayram va dam olish kishi kunlari	12000
Uzrli ishga kelmagan kishi kunlari	7700
SHu jumladan:	
Navbatdagi ta'til	360
O'quv ta'tili	150
Homiladorlik ta'tili	130
Kasallik sababli	90
Qonun bo'yicha ruxsat etilgan	40
Kun davomida uzrli foydalanilmagan kishi/soatlar	1000
SHu jumladan:	
Kasallik sababli	300
Emizikli bolaga qarash sababli	450
Davlat majburiyatlarini bajarish	250
To'liq ish vaqtining yo'qotilishi	100
SHu jumladan:	
Ma'muriyat ruxsati bilan	45
Sababsiz	30
Kun davomida bo'sh turish	25
Almashish orasidagi ish saotining yo'qotilishi	1000
SHu jumladan:	
Almashish orasidagi bo'sh turish	500
Kech qolish	100
Erta kelish	100
Mehnat intizomini buzish natijasida	300
Ishlangan kishi/soatlar	340500
SHu jumladan, ustama	4000
Belgilangan ish kuning davomiyligi	6,6

Kalendar vaqt fondi kishi kunlari:

$$53200+7700+100+12000=73000 \text{ k/k.}$$

Shu fondni o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonining yildagi kalendar kunlariga ko'paytmasi ham beradi.

$$200 \times 365 = 73000 \text{ k/k.}$$

Tabel ish vaqti fondi:

$$73000 - 12000 = 61000 \text{ k/k.}$$

Maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi:

$$61000 - 3600 = 57400 \text{ k/k.}$$

Ish vaqti fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlari:

1) Kalendar ish vaqti fondidan foydalanish:

$$\hat{E}_{\text{kif}} = \frac{\text{ishlangan kishi/kunlar}}{\text{kalendar ish vaqti fondi}} = \frac{53200}{73000} = 0,729 \cdot 100\% = 72,9\%;$$

2) Tabel ish vaqti fondidan foydalanish:

$$\hat{E} = \frac{\text{ishlangan k/k}}{\text{tabel ish vaqti fondi}} = \frac{53200}{61000} = 0,672 \cdot 100\% = 67,2\%;$$

3) Maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanish:

$$\hat{E}_{\text{mif}} = \frac{\text{ishlangan k/k}}{\text{maksimal ish vaqti fondi}} = \frac{53200}{57200} = 0,927 \cdot 100 = 92,7\%.$$

Demak, foydalanilmagan ish vaqti 7,3 foizni tashkil etgan.

5.3. Ish davri davomiyligi va undan foydalanish ko'rsatkichlari

Ish davri davomiyligini o'rganishda o'rtacha ish kuni, o'rtacha ish oyi, o'rtacha ish yili davomiyligi tushuniladi. Ish davri davomiyligi mehnat qonuniyatiga muvofiq belgilangan ish haftasining uzunligi, ya'ni 40 va 36 soatlik ish haftasiga bog'liq holda hisoblanadi.

Belgilangan ish kunining uzunligi:

- besh kunlik ish haftasi uchun:

$$40s : 5k = 8s;$$

$$36s : 5k = 7,2s.$$

- olti kunlik ish haftasi uchun:

$$40s : 6k = 6,67s;$$

$$36s : 6k = 6s.$$

Belgilangan ish kunining uzunligi o'rtacha arifmetik usulda hisoblanadi.

Masala: Korxonada 100 xodimdan 12tasi imtiyozli 36 soatlik ish haftasi bo'yicha ishlasa, o'rtacha belgilangan ish kunining uzunligi:

$$L_{\text{ik}} = \frac{8\hat{e} \cdot 8\tilde{n} + 12\hat{e} \cdot 7,2\tilde{n}}{100} = 7,9 \tilde{n} \hat{a} \hat{o}$$

Demak, besh kunlik ish haftasi bo'yicha o'rtacha belgilangan ish kuni uzunligiga 7,9 soatga teng.

Belgilangan ish oyi, yilining davomiyligini hisoblashda maksimal imkoniyatli vaqt fondi o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soniga bo'linadi. Haqiqiy ish davrining davomiyligi quyidagicha hisoblanadi:

1. Ish oyi va haftasining uzunligi:

$$\text{kunlarda} = \frac{\text{oy (hafta) davomida ishlangan ish kunlar}}{\text{ishchilarning oy (hafta) lik o'rtacha soni}};$$

$$\text{soatlarda} = \frac{\text{oy (hafta) da ishlangan barcha kishilar soatlari}}{\text{ishchilarning oy (hafta) lik o'rtachasoni}};$$

2. Ish kunining uzunligini 6 kunlik ish haftasi bo'yicha aniqlash uchun ishlangan barcha kishi/soatlari ishlangan kishi/kunlariga bo'linadi, 5 kunlik ish haftasini aniqlash uchun ishlangan barcha kishi/soatlari ishlangan kishi/kunlari va qo'shimcha dam olish kishi kunlariga bo'linadi.

Haqiqiy ish davri davomiyligining belgilangan ish davri davomiyligiga nisbati, qay darajada ish davri uzunligidan foydalanilganligi ko'rsatkichini beradi.

5.3.1-jadval

Korxonada yil davomida ish vaqtidan foydalanish

Ish vaqtidan foydalanish	Kishi kun
Haqiqiy ishlangan	126000
Kun davomida bo'sh turish	120
Ishga kelmagan - jami	32100
SHu jumladan:	
Navbatdagi ta'til	6200
Bayram va dam olish kunlari	40200

Kalendar va maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanish ko'rsatkichi 7,3% km. kishi/kun.

Jonli mehnat sarflari xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni yoki ishlangan kishi/kunlari kishi/soatlari soni ko'rsatuvchilari bilan ifodalanadi.

O'tgan asrning 50-yillari oxirigacha socialistik davlat statistikasining mehnat unumdorligini hisoblashda ishchilar mehnat sarfigina hisobga olingan, 60-yillardan boshlab, ishlab chiqarish xodimlarining barcha toifalari (sanoatda-sanoatning ishlab chiqarish xodimlari, qishloq xo'jaligida chorvachilik va dehqonchilikda band bo'lgan xodimlar: qurilishda qurilish-montaj ishlarida, yordamchi ishlab chiqarishda band bo'lganlar va ularning mehnat safarlari e'tiborga olina boshladi.)

5.4. Ish vaqti balans

Ish vaqti balansini tuzish ish vaqti manbalari va ulardan qay darajada foydalanilganligini yaqqol ko'rsatib beradi. Bu balans ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda ish vaqti manbalari keltiriladi, ikkinchi qismda ish vaqti fondi qanday ishlatilganligi ko'rsatiladi.

YUqoridagi masala sharti bo'yicha ish vaqti balans quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

5.4.1-jadval

Ish vaqti balansi

Ish vaqti manbalari		Haqiqiy ishlangan va ishlanmagan vaqt		
Ko'rsatkichlar	kishi soatlar	foydalanish	kishi/soat-lar	%
Kalendar vaqt fondi (73000*6,6)	481800	Haqiqiy ishlangan (53200*6,6)	351120	-
		Uzrli sababga ko'ra ishlanmagan kunlar	270606	-
Bayram va dam olish (12000*6,6)	79200	SHu jumladan:		
		o'quv ta'tili (1500*6,6)	9900	-
Navbatdagi ta'til (3600*6,6)	2880	homiladorlik ta'tili (1300*6,6)	8580	-
	23760	kasallik sababli (900*6,6)	5940	-
		qonun bo'yicha ruxsat etilgan 400*6,6	2640	-
		Uzrli ishlanmagan kishi soatlar	360	-
		SHu jumladan,		-
		kasallik sababli	170	-
		go'dak bolali onaga imtiyoz	100	-
		davlat majburiyatini bajarish	90	-
		Ish vaqtining yo'qotilishi		-
		Jami :	300	-
		SHu jumladan,		-
		to'liq ish kunining yo'qotilishi (30 kG'k*6,6)	198	-
		ish kuni ichida yo'qotilgan kishi soatlar	102	-
		SHu jumladan,		-
		smena almashishi orasida bo'sh turishlar	12	-
		kech qolish	20	-
		erta kelish	36	-
		Kech kelish mehnat intizomini buzish	34	-
		Erta ketish	100	-
		Mehnat intizomini buzish	300	-

Ish vaqti balansi korxonada, birlashma, tarmoq doirasida tuzilishi mumkin. Ish vaqti balansi maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanishni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega: haqiqiy ishlangan ish vaqti, uzrli ishlanmagan ish vaqti, ish vaqtining yo'qotilishi. Bunday tahlil dinamikasi vaqt o'zgarishi bilan maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan foydalanishda qanday o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatadi.

YUqoridagi masala shartiga binoan tuzilgan balans shuni ko'rsatadiki, maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi (351120 k/k : 378840 k/k) 92% kam foydalanilgan. Uzrli sabablarga ko'ra, foydalanilgan ish vaqti (27420 k/k : 378840k/k) 7,2% ni tashkil etgan. Ish vaqtining yo'qotilishi (300 k/k : 378840k/k) 0,8 % bo'lgan.

Tahlilning keyingi bosqichida shu ish vaqtining yo'qotilishi qanday zarar keltirganligini aniqlash mumkin bo'ladi va uni bartaraf etish yo'llarini izlash kerakligiga chorlaydi.

Qisqacha xulosalar

Ish kuchidan to'laroq foydalanish maqsadida, ish vaqti o'rganiladi. Agar mehnat uning davomiyligi bilan o'lchansa, ish vaqti esa kalendar vaqtning bir qismi bo'lib, ishchining shu kalendar vaqtida ishlagan vaqtini ifodalaydi. Mehnat statistikasi amaliyotida ko'proq ishlangan ishchi/kun va ishchi/soat o'lchov birliklaridan foydalaniladi.

Ish vaqti fondlari: kalendar, tabel va maksimal imkoniyatli vaqt fondlariga bo'lib o'rganiladi. Qay darajada shu vaqtlardan foydalanish darajasini o'rganish maqsadida nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu nisbiy ko'rsatkichlardan faqat maksimal imkoniyatli ish vaqti fondidan yuz foizga foydalanish mumkin, agar ishni tashkil etish yuqori o'rinda bo'lsa, ish vaqtidan foydalanishni o'rganishda, belgilangan ish davrining (kun, hafta, oy, yil) davomiyligi va haqiqiy ish davrining davomiyligi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar bir-biriga nisbatan, qay darajada belgilangan ish davri davomiyligidan foydalanilganlikni ko'rsatadi.

Ish vaqtidan foydalanishni o'rganishda ish vaqti balansi as qotadi. Bu balansda ish vaqti manbalari va ulardan foydalanish ko'rsatiladi, bu esa foydalanilmagan ish vaqtini aniqlash va buning natijasida keltirilgan zarur miqdorni baholashga yordam beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Ish vaqti haqida tushuncha.
2. Ish vaqti o'lchov birliklari.
3. Ish vaqti fondlari va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari.
4. Belgilangan ish vaqti davomiyligini hisoblash.
5. O'rtacha ish vaqti davomiyligi.
6. Haqiqiy ish vaqti davomiyligi.
7. Ish vaqti davomiyligidan foydalanish ko'rsatkichi.
8. Ish vaqti balansi va uning mohiyati.

Asosiy adabiyotlar

1. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
2. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
3. В.Г.Минашкин, О.Л.Козарезова. Основы теории статистики. – М., 2004 г.
4. Р.А.Шмойлова и др. Практикум по теории статистики. Учебной пособие. – М., 2004 г.
5. Р.А.Шмойлова и др. Теория статистики. Учебник. – М., 2004 г.
6. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
7. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.
8. www.euireland.ie
9. www.cec.org.uk

VI bob. MEHNAT POTENSIALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI STATISTIKASI

(Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha yozilishi)

Mavzu 6	Mehnat potensialidan foydalanish samaradorligi statistikasi
----------------	--

1.1. Ma'ruza o'qitish texnologiyasi

«Iqtisodiyot va statistika» fakulteti «Statistika» kafedrası «Statistika» ta'lim yo'nalishi 7-semestr	O'qitiladigan fan nomi: Mehnat statistikasi	Mavzu 6 10-soat
Talabalar soni: 25 tadan ko'p emas	Muallif Akbarova Z.	O'qituvchi Akbarova Z.
O'quv mashg'uloti formasi	Tematik ma'ruza	

Ma'ruza rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mehnat unumdorligini statistik o'rganishning nazariy asoslari 2. Unumdorlikning statistik ko'rsatkichlari tizimi 3. Mehnat unumdorligi dinamikasi
------------------------	--

O'quv mashg'ulotining maqsadi	Mehnat unumdorligini bozor munosabatiga o'tish sharoitidagi tutgan o'rmini to'la yoritish, mehnat unumdorlik ko'rsatkichini miqdoriy baholash yo'llarini o'rganish, mehnat unumdorligini o'zgarishi – natijaviy ko'rsatkichga, ya'ni, yalpi ichki mahsulot o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilishni o'rgatish, mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi multiplikativ va adiptiv modellar yordamida baholashni tushuntirish
Pedagogik vazifalar:	O'kitish faoliyatining natijalari:
- fanning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, uning o'quv mashg'ulotlari tizimidagi o'rni va rolini ko'rsatish;	- fanning maqsad va vazifalarini bilish;
- fanning tarkibini ko'rsatish va tavsiya etilgan o'quv-metodik qo'llanmalarni baholash;	- fanning tarkibini o'rganish, tavsiya etilgan adabiyotlarni guruhlariga ajratish va o'rganishni boshlash;
- mehnat statistikasi	- ko'rsatkichni hisoblashni rasmiy ma'lumotlardan foydalanib hisoblashni bilish;
- fan doirasida ishlashning uslubiy va tashkiliy tomonidan o'ziga hos hususiyatlarini, baholashning formalari va muddatlarini talabalarga etkazish;	- fanni o'rganishning o'ziga hos hususiyatlarini bilib olish, talabalar bilim saviyasini baholashning forma va muddatlarini bilib olish va unga qattiq rioya qilish;

Ma'ruzaning texnologik kartasi

Ishlash bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'kituvchi	O'kuvchi
1 bosqich mavzuga kirish (30 min.)	1.1. Mavzu nomini to'liq va aniq aytadi va rejasi yoziladi. Asosiy adabiyotlar ro'yhatini keltiradi (ilova 1).	Talabalar yozadi
	1.2. «Miya janggi» (ilova 2) usulini qo'llab talabalardan mehnat unumdorlik tushunchasini yoritish bo'yicha savol beriladi.	Talabalar javobi eshilib, muhokama qilinib, har bir talaba o'z fikrini aniqligini isbotlash natijasida muxokama qilinadi
	1.3. U haqda birlamchi to'liq tushuncha beradi, kategoriyani o'ziga hos uslubiy va tashkiliy hususiyatlarini ochadi.	Talabalar tinglaydi
	1.4. «Miya janggi» (ilova 2) usulini qo'llab kategoriyani o'rganish ahamiyati haqida savol beriladi.	Talabalar o'z fikrlarini bayon etib, muhokama qilinadi
	1.5. Talabalarni fikrini umumlashtirib, qo'shimcha qirralarini yoritib, oydinlik kritadi.	Talabalar tinglaydi
2-bosqich Asosiy bosqich (30 min.)	2.1. «Miya janggi» usulini qo'llab (ilova 2) talabalarga qanday qilib kategoriyani miqdoriy baholash mumkinligi bo'yicha savol beriladi.	Talabalar javobi eshilib, muhokama qilinib, har bir talaba o'z fikrini aniqligini isbotlash natijasida muxokama qilinadi
	2.2. Talabalarni fikrini umumlashtirib, qo'shimcha qirralarini yoritib, oydinlik kritadi.	Talabalar tinglaydi va yozadi
	2.3. SHu savolni yoritish maqsadida namunaviy misol beriladi va uni echish yo'llanmasi beriladi.	Talabalar misolni o'rganib chiqib, mustaqil 3 daqiqada echishadi
	2.4. Echilgan javoblarni umumlashtirib to'g'ri echimi beriladi	Har bir talaba o'zi yo'l qo'ygan xatoligini aniqlaydi
3-bosqich Asosiy bosqich (40 min.)	3.1. Tarqatilgan ma'ruza matnlarida keltirilgan (Ilova 3) G'arb statistikasidan mehnat unumdorlik kategoriyasi darajasini hisoblashda natijaviy ko'rsatkich sifatida qo'llanadigan kategoriyalarga ta'rif beriladi (Sur'at ko'rsatkichlari).	Talabalar tinglab har bir ilovadagi keltirilgan sur'atdagi tavsiya etilgan ko'rsatkichlar bilan tanishishadi
	3.2. SHu muammo bo'yicha talabalarga o'z fikrini aytishi uchun savol beriladi.	Shu ko'rsatkichlar bo'yicha o'z fikrini aytadi
	3.3. Tarqatilgan ma'ruza matnlarida keltirilgan (Ilova 3) G'arb statistikasidan mehnat unumdorlik kategoriyasi darajasini hisoblashda natijaviy ko'rsatkich sifatida qo'llanadigan kategoriyalarga ta'rif beriladi (Maxraj ko'rsatkichlari).	Talabalar tinglab har bir ilovadagi keltirilgan sur'atdagi tavsiya etilgan ko'rsatkichlar bilan tanishishadi

	3.4. SHu muammo bo'yicha talabalarga o'z fikrini aytishi uchun savol beriladi.	SHu ko'rsatkichlar bo'yicha o'z fikrini aytadi
4-bosqich Asosiy bosqich (60 min.)	4.1. «Miya janggi» usulini qo'llab (ilova 2) dinamika ma'nosini yoritish haqida savol beriladi.	Talabalar o'z fikrlarini bayon etib, muhokama qilinadi
	4.2. Talabalarni fikrini umumlashtirib, qo'shimcha qirralarini yoritib, oydinlik kritadi.	Talabalar tinglaydi
	4.3. Mehnat unumdorlik individual indeksini hisoblash maketi va asosiy kategoriyalar belgisi beriladi.	Talabalar shu maketga binoan hamma berilgan kategoriyalar bo'yicha 5 minut maboynida barcha indekslarni tuzishadi.
	4.4. Doskaga bir talaba chiqib, bajargan ishini to'g'ri indeks tuzilishini o'qituvchi rahbarligi ostida yozadi.	Talabalar o'z xatolarini to'g'irlashadi va savollari bo'lsa bu savollarga javob oladilar
	4.5. Indekslar orasidagi bog'liqlikni plakatda ko'rsatib tushuntiriladi (ilova 4).	Talabalar boshqa indekslar bo'yicha shu bog'liqliklarni tuzishadi.
	4.6. Bir jumalik misol beriladi.	Talabalar hisoblash yo'lini aytib beradi
	4.7. Kamchiliklarini tushuntiradi.	Talabalar yozadi
5-bosqich Asosiy bosqich (60 min.)	5.1. Mehnat unumdorligini umumiy indeksini tuzishni o'qituvchi doskada ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi
	5.2. Mehnat unumdorligini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ta'sirini indeks yordamida o'rganishni doskada yozib beradi.	Talabalar yozadi
	5.3. Indekslar orasidagi mul'tplikativ va adiptiv bog'liqlik modelni ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi
	5.4. Namunaviy misol doskada beriladi, uni ishlash uchun tavsiya beriladi.	Hamma talabalar o'z daftarida mustaqil, bir talaba doskada o'qituvchi rahbarligi ostida hisoblaydi
	5.5. O'qituvchi ko'rib o'tilgan shu bosqichdagi usullarga yakun yasaydi.	Talabalar tinglaydi
6-bosqich Asosiy bosqich (60 min.)	6.1. Mehnat unumdorligini umumiy indeksini qisman usul bo'yicha tuzishni o'qituvchi doskada ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi
	6.2. Mehnat unumdorligini o'zgarishiga qisman usul bo'yicha ta'sir etuvchi omillarni ta'sirini indeks yordamida o'rganishni doskada yozib beradi.	Talabalar yozadi
	6.3. Indekslar qisman usul bo'yicha orasidagi mul'tplikativ modelni ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi

	6.4. Namunaviy misol doskada beriladi, uni ishlash uchun tavsiya beriladi.	Hamma talabalar o'z daftarida mustaqil, bir talaba doskada o'qituvchi rahbarligi ostida hisoblaydi
	6.5. O'qituvchi ko'rib o'tilgan shu bosqichdagi usullarga yakun yasaydi.	Talabalar tinglaydi
7-bosqich Asosiy bosqich (60 min.)	7.1. Mehnat unumdorligini teskari ko'rsatkich yordamida tuzilgan umumiy indeksini tuzishni o'qituvchi doskada ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi
	7.2. Mehnat unumdorligini teskari ko'rsatkich yordamida tuzilgan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ta'sirini indeks yordamida o'rganishni doskada yozib beradi.	Talabalar yozadi
	7.3. Indekslar teskari ko'rsatkich yordamida tuzilgan orasidagi multiplikativ modelni ko'rsatib beradi.	Talabalar yozadi
	7.4. Namunaviy misol doskada beriladi, uni ishlash uchun tavsiya beriladi.	Hamma talabalar o'z daftarida mustaqil, bir talaba doskada o'qituvchi rahbarligi ostida hisoblaydi
	7.5. O'qituvchi ko'rib o'tilgan shu bosqichdagi usullarga yakun yasaydi.	Talabalar tinglaydi
8-bosqich Asosiy bosqich (60 min.)	8.1. Mehnat unumdorligini uch xil usuli bo'yicha tuzilgan indekslar orasidagi birlik va farqi tushuntiriladi va doskada yozib ko'rsatiladi.	Talabalar yozadi
	8.2. Mehnat unumdorligini har uchala usulning amaliyotda foydalanishi bayon etiladi.	Talabalar yozadi
	8.3. Natijaviy ko'rsatkichga ekstensiv va intensiv omillar ta'siri tahlil qilinishi bir misolda ko'rsatiladi.	Talabalar yozadi
	8.4. Namunaviy misol doskada beriladi, uni ishlash uchun tavsiya beriladi.	Hamma talabalar o'z daftarida mustaqil, bir talaba doskada o'qituvchi rahbarligi ostida hisoblaydi
	8.5. O'qituvchi ko'rib o'tilgan shu bosqichdagi usullarga yakun yasaydi.	Talabalar tinglaydi

Asosiy adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. Tanlangan asarlar to'plami. 1-4 tomlar.
2. O'zbekiston «Davlat statistikasi haqida»gi Qonuni. 2002 yil, dekabr.
3. «O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish haqida»gi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil yanvar oy, 8-son Qarori.
4. O'zbekiston hisob va statistikasini xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tkazish haqida Davlat dasturi. Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 avgust 433-son Qarori.
5. Akbarova Z. Mehnat bozori statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2004.
6. Под ред. С.Д.Ильенковой. Микроэкономическая статистика. Учебник. – М., 2004 г.
7. Микроэкономическая статистика. Под ред. Ильиновой С.Д. – Учебник, М: «Финанс и статистика» 2004 г. 585-бет
8. Адамов В.Е. Статистика промышленности. Учебник, М: «Финанс и статистика», 1997. 387-бет.
9. Nabiev X.N. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma T. TDIU. 2003 y, 105-bet.
10. Салин В.И. и др. Социально-экономическая статистика. Учебник. М: «Юрист» 2002 г, 384-бет
11. Промышленность Узбекистана. Статсборник, Т.2005 г.-100 бет.
12. Башкатов Б.И., Карпухина Г.Ю. Международная статистика труда. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2001.
13. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матаева В.М. Международная статистика. Учебник – М.: Дело и Сервис, 1999.

2-Ilova

«Miya janggi» qoidalari

- O'zaro baholash va tanqidga yo'l qo'ymaslik;
- Aytilgan g'oyalarni baholashdan voz kechish, agar ular fantastik va bo'lishi mumkin bo'lmasa ham- hammasiga ruxsat etiladi.
- Tanqil qilma – barcha aytilgan fikrlar qimmatbaho.
- So'zga chiquvchini gapini bo'lma!
- Maqsad yuksak maqsadga erishish!
- Qancha ko'p fikr bildirilsa, shuncha yaxshi: yangi va qimmatbaho g'oyalar chiqishi ehtimoli kattaroq.
- Fikrlar qaytarilsa ham, hafa bo'lma, hayron ham bo'lma.
- Fikrlash doirasini «qaynashiga» ruxsat ber.
- O'ylagan fikringni, u to'g'ri kelmasa ham, albatta ayt.
- Bu muammo faqat ma'lum usullarni qo'llab echiladi, deb o'ylama.

3-ilova*Xalqaro statistikada qo'llaniladigan unumdorlik ko'rsatkichlari*

№	Ko'rsatkichlar	Kasrda	
		surat	maxraj
1	Mehnat unumdorligining natura shaklidagi ko'rsatkichlari	Mahsulotni natura shaklidagi birliklarida chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
2	Mehnat unumdorligining shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlari	Mahsulotni shartli-natura shakli birliklarida chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
3	Mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlari		
A	YAlpi mehnat unumdorligi	YAlpi qo'shilgan qiymat, mahsulotni yalpi ishlab chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
V	Sof mehnat unumdorligi	Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birligida
S	Integral mehnat sarflari	YAlpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish	Ishlab chiqarishning vaqt birligida ifodalangan barcha omillari
D	Global mehnat unumdorligi	YAlpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish	Ishlab chiqarishning pul ifodasidagi barcha omillari
E	Total mehnat unumdorligi	Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot	Pul ifodasidagi mehnat va doimiy kapital
F	Mehnat sarfi birligiga haqiqiy daromadlar	YAlpi ichki mahsulot (sof mahsulot)	Vaqt birliklaridagi mehnat sarflari

Indekslar orasidagi bog'liqlik

Xodisalar orasidagi bog'liqlik

$$\underset{\text{mahsulot hajmi}}{q} \times \underset{\text{baho}}{p} = \underset{\text{qiymat}}{q p}$$

Shu bog'liqlik indekslarda ham saqlanib qoladi.

$$\underset{\text{mahsulot hajmi o'zgarishi}}{\dot{i}_q} \times \underset{\text{baho o'zgarishi}}{\dot{i}_p} = \underset{\text{qiymat o'zgarishi}}{\dot{i}_q p}$$

6.1. Mehnat unumdorligini statistik o'rganishning nazariy asoslari

6.2. Unumdorlikning statistik ko'rsatkichlari tizimi

6.3. Mehnat unumdorligi dinamikasi

Bugungi mavzuumiz mehnat unumdorligi statistikasi bo'lganligi uchun:

Savol: Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?

Javob: Qilingan mehnat hajmi.

Javob: Qilingan mehnat maxsuli.

Javob: Qilingan mehnat unumi.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

Mehnat unumdorligi darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

«Iqtisodiyot» fani mehnat unumdorligi muammolarini o'rganishni XIX asr oxirida boshlagan. Mehnat unumdorligi – bir ishchiga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini natural o'lchov birligidagi ifodasi tarzida amalga oshirila boshlangan. Bu ko'rsatkichlar sanoatning alohida tarkibi jihatidan bir xil (galogen) tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning eng muhim turlari bo'yicha aniqlangan. So'ngra iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mahsulot ko'rsatkichlari hamda mehnat sarflari hisob-kitobining rivojlanishi mehnat unumdorligini faqat natura ifodasida emas, balki pul ifodasida va faqat sanoatda emas, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, xizmat ko'rsatish sohasini ham qo'shgan holda hisoblab chiqish imkonini berdi.

Savol: Sizlarni fikringizcha, nima uchun mehnat unumdorligiga alohida etibor berib, alohida mavzu sifatida, boshqa fanlar bilan bir qatorda, statistika ham ahamiyat berilmoqda?

Javob: Mehnat qilingandan so'ng uning natijasini bilish uchun.

Javob: Mehnat unumdorligini yanada oshirish maqsadida.

Javob: Mehnat doim bo'lganligi uchun uni ham o'rganish lozim.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

Bozor munosabatga o'tishning birlamchi maqsadi, aholini talablarini to'laroq qondirib, uning turmush darajasini yuqoriroq pog'onaga ko'tarish. Eng asosiy ko'rsatkich bo'lib, aholini talabini qondirishda mehnat mahsuli hisoblanadi. shu mahsulini oshirishda ikki xil omil ishtirok etadi: ekstensiv omil va intensiv omil.

Ekstensiv omil xarajat omili bo'lib, mehnat hajmini oshish natijasida natijaviy ko'rsatkichni ortishini nazarda tutadi. Bu omil bugungi kunda bozor munosabati sharoitida iloji boricha xarajatni minimallashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Intensiv omil – bu mavjud mehnat hajmidan intensivroq foydalanishni nazarda tutadi. SHuning uchun bu eng asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Davlat, rivojlangan davlatlar qatoriga faqat shu payt qo'shiladiki, qachon yaratilgan YAIM ning o'sishining asosiy qismi intensiv omil natijasida, ya'ni, mehnat unumdorligi oshish natijasida erishilgan bo'lsa.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi darajasini taqqoslash, shuningdek, uning dinamikasini o'rganish ishlari boshlanib ketdi. Dastlabki bosqichlarda unumdorlik mehnat unumdorligi sifatida o'rganildi, keyinchalik mehnat unumdorligini ishlab chiqarishning boshqa omillari unumdorligiga o'xshash xususiy unumdorlik sifatida talqin qiladigan global unumdorlik konsepsiyasi umum qabul qilingan konsepsiyaga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda milliy hisobchilik tizimining paydo bo'lishi va rivojlanishi unumdorlikni o'rganish sohasidagi ishlarga yangi turtki bo'ldi, chunki bu tizim ma'lumotlari mehnat unumdorligini tarmoq va butun iqtisodiyot darajasida tadqiq qilish imkonini beradi, shuningdek, xalqaro taqqoslashlar uchun asos yaratadi.

Ma'lumki, statistikada mehnat unumdorligi deganda faqat jonli aniq mehnatning unumdorligi tushuniladi. Statistikada unumdorlikni faqat jonli emas, balki moddiylashgan mehnat sarfini ham hisobga olib o'rganadigan qator ishlar bor. Birinchi bunday yondashuvni S.G.Strumilin o'zining 1935 yilda nashr etilgan "SSSR qora metallurgiyasi" asarida asoslab bergan.

Hozirgi kunda iqtisodchilarning aksariyat ko'pchiligi, unumdorlik ishlab chiqarish va jonli mehnat sarflari natijalarining nisbatini, iqtisodiy samaradorlik esa ishlab chiqarish natijalarining jonli va moddiylashgan mehnat sarflariga munosabatini ifodalaydi, deb hisoblaydi. Jonli mehnat sarflari xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni yoki ishlangan kishi/kunlari, kishi/soatlari soni ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

O'tgan asrning 50-yillar oxirigacha socialistik davlat statistikasida mehnat unumdorligini hisoblashda ishchilar mehnat sarfigina hisobga olingan. 60-yillardan boshlab, ishlab chiqarish xodimlarining barcha toifalari (sanoatda-sanoatning ishlab chiqarish xodimlari; qishloq xo'jaligida chorvachilik va dehqonchilikda band bo'lgan xodimlar; qurilishda qurilish-montaj ishlarida, yordamchi ishlab chiqarishda band bo'lganlar va ularning mehnat sarflari e'tiborga olina boshladi.

Savol: Sizlarni fikringizcha, mehnat unumdorligi qancha miqdorni tashkil etganligini qanaqa qilib hisoblasa bo'ladi, ya'ni, qanday miqdoriy baholash mumkin?

Javob: Qancha masulot ishlab chiqarilgan bo'lsa.

Javob: Har bir ishchi qancha mahsulot ishlab chiqargani hisoblanadi.

Javob: Yil davomida qancha kishi mehnat qilib qancha mahsulot olganligi taqqoslanadi.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

Mehnat unumdorligi darajasi qilingan mehnatdan olingan samarani (mahsulot yoki xizmat) baholab berishi lozim. SHuning uchun bu ko'rsatkichni hisoblashda sarf qilingan mehnat—T va natijaviy ko'rsatkich — Q lar nisbati olinadi.

Ishlab chiqarish natijalari ko'rsatkichlari sifatida mahsulotning natura shakli, shartli-natura shakli va qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Mahsulotning natura shaklidagi ko'rsatkichlari bir turli mahsulotning mehnat unumdorligi

dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Ulardan mehnat unumdorligini mahsulotning eng muhim turlari bo'yicha tavsiflashda foydalaniladi:

$$w = \frac{q}{T}$$

Iste'mol qiymati bir xil bo'lgan, lekin ayrim parametrlari bilan farqlangan mahsulotlarni umumlashirish maqsadida shartli natural mehnat unumdorligi darajasidan foydalaniladi:

$$w = \frac{\sum q_k}{\sum T}$$

Bu erda, k – shartli etalonga o'tkazish ko'rsatkichi.

Mahsulotning qiymat ko'rsatkichlari mehnat unumdorligining turli xil iste'mol qiymatlari bo'yicha umumlashgan tavsiflarni olish imkonini beradi:

$$w = \frac{\sum qP}{\sum T}$$

Bu erda, P – baho.

Mehnat unumdorligining natura shakli, shartli-natura shakli va qiymat ko'rsatkichlari bilan birga unumdorlikning mehnat ko'rsatkichlari ham hisoblanadi. Ular ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarishning mehnat talabiga asoslanadi va mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining o'zgarishini aks ettiradi. Unumdorlikning mehnat ko'rsatkichlari bir turli mahsulotning bir yoki bir necha turlari bo'yicha aniqlanadi:

$$w = \frac{\sum qt}{\sum T}$$

Bu erda, t - mehnat talabchanligi.

Ikkinchidan, yuqoridagi ko'rsatkichlarning bir-biriga nisbati $\frac{T}{Q}$ tariqasida olinsa, chiqqan natija maxraj birligiga qancha surat ko'rsatkichi to'g'ri kelishini ifodalaydi yoki mehant talabchanligi, ya'ni $t = \frac{T}{Q}$ teskari ko'rsatkich hisoblanadi, chunki mehnat talabchanligi oshsa, mehnat unumdorligi pasayadi, ya'ni to'g'ri va teskari mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari orasida teskari bog'liqlik mavjuddir.

Namunaviy masala.

Ikki brigada bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Brigadalar bo'yicha terilgan paxta va terimchilar haqida ma'lumotlar

Brigadalar	Sentyabr		Oktyabr	
	Terilgan paxta, kg	O'rtacha terimchilar soni, kishi	Terilgan paxta, kg	O'rtacha terimchilar soni, kishi
	q_0	T_0	q_1	T_1
1	75000	50	82000	62
2	100000	60	130000	78

1. Mehnat unumdorligi darajalarini.

2. Har bir brigada va korxonaga bo'yicha mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlang:

Echim: Sentyabr oyida mehnat unumdorlik darajalari:

$$1\text{-brigada: } W_0 = \frac{q_0}{T_0} = \frac{75000}{50} = 1500 \text{ kg}$$

$$2\text{-brigada: } W_0 = \frac{q_0}{T_0} = \frac{100000}{60} = 1667 \text{ kg}$$

Oktyabr oyida:

$$1\text{-brigada: } W_1 = \frac{q_1}{T_1} = \frac{82000}{62} = 1323 \text{ kg}$$

$$2\text{-brigada: } W_1 = \frac{q_1}{T_1} = \frac{130000}{78} = 1667 \text{ kg}$$

$$W = \frac{1}{t}, \quad t = \frac{1}{W}$$

Birinchi nisbatda mehnat unumdorligi darajasi W_{qq}/T avqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki xizmat hajmini ifodalab, mehnat unumdorligining to'g'ri ko'rsatkichi hisoblanadi. bu ko'rsatkichni hisoblashda sur'atiga ko'ra, mehnat unumdorligi darajasi quyidagilar bo'lishi mumkin:

- a) mehnat unumdorligining natija shaklidagi ko'rsatkichi;
- b) mehnat unumdorligining shartli natija shaklidagi ko'rsatkichi;
- v) qiymat ko'rsatkichi;
- g) mehnat ko'rsatkichi;

G'arb statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlarini hisoblash asosida keng tarqalgan "ishlab chiqarish omillari" konsepsiyasi yotadi. Uning asoschisi J.B. Sey ta'kidlashicha, yollanma mehnat ekspluatatsiya qilinmaydi, chunki ishlab chiqarish jarayonida mehnat, kapital va er teng huquqlarda ishtirok etadi. SHuning uchun ishlab chiqarishning har xil omili ko'rsatgan xizmati uchun taqdirlanadi: xodim ish haqi bilan taqdirlanadi; kapital egasi foyda yoki foiz oladi; er egasi-renta oladi.

"Ishlab chiqarish omillari" nazariyasidan uning turli modifikasiyalarida hozirgi kunda ham xalqaro statistikada foydalaniladi. Hozirgi kunda g'arbdagi turli iqtisodchilar fikricha, ishlab chiqarishda ko'p sonli omillar ishtirok etadi. Ular orasida ishchi kuchini ifodalaydigan (xodimlarning malaka darajasi, ishchi kuchining qo'nimsizligi, ish kunining davomiyligi), ishlab chiqarish fondlari (asosiy kapitalning holati, ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi, energetika quvvatlaridan foydalanish), ishlab chiqarish jarayoni (mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot assortimenti va navlari), ishlab chiqarishni tashkil etish (boshqaruvni tashkil etish, mehnat xavfsizligi texnikasi, moddiy-texnika ta'minotini tashkil etish) va boshqa omillar bor. Ammo ko'pgina omillarni miqdoriy baholab bo'lmaydi.

SHuning uchun iqtisodiy tahlil maqsadlarida ko'pincha jonli mehnat, asosiy kapital (erni ham qo'shib), tadbirkorlik faoliyati (ishlab chiqarishni boshqarish), oraliq iste'mol (iste'mol qilingan mehnat predmetlarining qiymati) kabi omillardan foydalaniladi. G'arb iqtisodchilari "Iqtisodiyot omillari" nazariyasiga tayanib, mehnat unumdorligi kategoriyasiga ishlab chiqarish natijalarining ishlab chiqarish omillari sarflariga nisbati sifatida talqin beradilar. Ular nuqtai nazaridan, mehnat unumdorligi asosiy kapital unumdorligi, oraliq iste'mol unumdorligi va ishlab chiqarishning boshqa omillari bilan birga omillar umumiy unumdorligining xususiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Amaliy hisob-kitoblarda ko'pincha mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari qo'llaniladigan holatni g'arb iqtisodchilari jonli mehnat sarfini o'lchashning oddiyligi bilan izohlaydilar. Bundan tashqari, ular jonli mehnat iqtisodiyotining ko'pgina sohalarida qiymat yaratishning ustuvor omili bo'lganligi va hozir ham shunday ekanligini tan oladilar. Ammo ularning fikricha, iqtisodiyot rivojlanishi bilan ishlab chiqarishning boshqa omillari (kapital va tadbirkorlik faoliyati) roli ortib borishiga ko'ra, jonli mehnatning ahamiyati kamayib boradi.

SHunday qilib, g'arb iqtisodiyoti fani unumdorlik deganda o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiy ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichiga yaqin ko'rsatkichni tushunadi. Tabiiyki, iqtisodiy samaradorlik darajasi va dinamikasi barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning barcha omillari teng huquqlarda ishtirok etganliklari uchun ham taqdirlanishida teng huquqqa ega bo'ladi.

6.2. Unumdorlikning statistik ko'rsatkichlari tizimi

G'arb statistikasida unumdorlik ko'rsatkichlari tizimi yuqorida ko'rib chiqilgan ishlab chiqarish omillari nazariyasi asosida tashkil etiladi. Bu nazariyaga ko'ra, mehnat unumdorligi unumdorlikning xususiy ko'rsatkichi sifatida qaraladi, chunki sarflangan jonli mehnat faqat ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida qaralib, texnik taraqqiyot rivojlanib borgani sari uning ahamiyati kamayib boradi.

SHunga ko'ra, g'arb iqtisodchilari fikricha, unumdorlik darajasini aniqlash uchun mahsulot hamda uni yaratishda ishtirok etadigan ishlab chiqarish omillarini statistik o'lchash lozim. Ma'lumki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot natura, shartli-natura shaklida va qiymat ko'rsatkichlarida o'lchanishi mumkin. Agar unumdorlik darajasi va dinamikasini aniqlash maqsadida mahsulotning natura yoki shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlaridan foydalanilsa, unda ular faqat jonli mehnat sarfi bilangina taqqoslanadi. Natijada jonli mehnat sarfi birligiga natura yoki shartli-natura shaklida ifodalanadigan, an'anaviy statistikada keng qo'llaniladigan muvofiq keluvchi ko'rsatkichga aynan o'xshash mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichiga ega bo'linadi. Bu usul bo'yicha hisoblangan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari iqtisodiyotning bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan tarmoqlaridagi mehnat unumdorligi darajasini tavsiflashda, shuningdek, bu darajalarni xalqaro qiyoslashda katta ahamiyatga egadir.

Qiymat ifodasidagi unumdorlik ko'rsatkichlariga kelsak, holat boshqacha tus oladi. Bu holatda unumdorlik darajasi mahsulot ko'rsatkichi va uni ishlab chiqarish omillarini tanlashga bog'liq bo'lib qoladi. Mahsulot ko'rsatkichi sifatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish, yalpi pirovard mahsulot, sof mahsulot, yalpi qo'shilgan qiymat, sof qo'shilgan qiymatdan foydalanish mumkin.

YAlpi mahsulot ishlab chiqarish sotish narxidagi tovar mahsuloti qiymati, o'z ehtiyoji uchun ishlab chiqarilgan uskuna va xo'jalik usulidagi kapital qurilish, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan qurilish, korxonalaridagi tayyor mahsulot va yarim tayyor mahsulotlarning o'sishini qamrab oladi.

YAlpi pirovard mahsulot korxonalar yoki tarmoqdan tashqari ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulot qiymatidir. O'z mazmuniga ko'ra, bu ko'rsatkich zavod yoki tarmoq usuli bo'yicha tovar mahsuloti ko'rsatkichiga muvofiq keladi. Sof mahsulot barcha ishlab chiqarish omillari sarflarining (mehnat sarfidan tashqari) qiymati chegaralangan yalpi mahsulot qiymati sifatida aniqlanadi.

Xalqaro statistikada unumdorlikni hisob-kitob qilishda oraliq iste'mol qiymati chegaralangan yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichidan keng foydalaniladi. YAlpi qo'shilgan qiymat bilan asosiy kapitalni iste'mol qilish o'rtasidagi farqni ifodalaydigan sof qo'shilgan qiymat ko'rsatkichi to'g'risida shuni aytish mumkinki, ayrim tarmoqda sof mahsulot bilan muvofiq bo'lsada, butun iqtisodiyot bo'yicha sof mahsulotdan noishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatadigan tarmoqlarda sof qo'shilgan qiymat summasi ortiq bo'ladi.

Unumdorlikni aniqlashda omillarni tanlash masalasi juda murakkab va xilma-xil. G'arb statistikasida ishlab chiqarish omillari sifatida mehnat, doimiy kapital va joriy ishlab chiqarish iste'molidan ko'proq foydalaniladi. Qator holatlarda bu omillarga tadbirkorlik faoliyati ham kiradi.

Jonli mehnat eng muhim ishlab chiqarish omili hisoblanadi. Uni o'lchash maqsadida berilgan davrdagi xodimlarning o'rtacha soni yoki ishlangan vaqtdan foydalanish mumkin. Ishlangan vaqt mehnat unumdorligi darajasi va dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Xodimlarning o'rtacha soni faqat mehnat unumdorligi dinamikasini emas, balki uning ish vaqti potensial fondidan foydalanishga bog'liq tarzda o'zgarishini ham aks ettiradi. Ravshanki, ishlangan vaqt tushunchasi malaka, intensivlik, mehnat shart-sharoitlari va boshqalar turlicha bo'lganligi tufayli turli toifadagi xodimlar, iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun sifat jihatidan bir xil bo'lmaydi.

Mehnat sarfini aniqlashda ikki variantdan foydalaniladi:

- a) mazkur tarmoqdagi ishlangan vaqt chegaralanishigacha shu toifa xodimlari ish haqining bir soatlik stavkasi bo'yicha o'lchanadi;
- b) ishlangan vaqt, uning sifat jihatidan bir xil emasligiga e'tibor bermay jamlanadi.

Bunda yana bir muhim amaliy muammo – haqiqiy ishlangan vaqtni haq to'langan vaqtdan chegaralash muammosi yuzaga keladi. Uni hal qilishning

yagona yo'li muvofiq keluvchi tanlov tekshirishni o'tkazish va so'ngra uning natijalarini shu tarmoqning barcha korxonalariga joriy qilishdir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat sarfi va yollanmagan xodimlar mehnat sarfini aniqlash yanada qiyin muammodir. Qishloq xo'jaligidagi ish kuchining davomiyligi tabiiy omillar, geografik zona va etishtirilayotgan ekinga bog'liq tarzda juda o'zgaruvchidir. SHuning uchun mehnat sarfini aniqlash maqsadida yaqinlashtirilgan ekspert baholashdan foydalaniladi.

Yollangan xodimlar mehnat sarfiga kelsak, u tadbirkorlar (egalik qiluvchalar) va uning bepul ishlaydigan oila a'zolari ishlagan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu sarflar hisob-kitob ish kuni yoki ish haftasining o'rtacha davomiyligini tanlab tekshirish ma'lumotlari bo'yicha yoki yollangan xodimlar turli toifalari ish kunining davomiyligini muvofiq qiluvchi toifadagi yollanma xodimlar ish kuni davomiyligiga shartli tenglashtirish yo'li bilan aniqlanadi.

Unumdorlik darajasi va bu daraja dinamikasini butun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha tavsiflashda faqat ish bilan band aholini emas, balki ishsizlarni ham nazarda tutish, ya'ni iqtisodiy faol aholi sonidan kelib chiqish mumkin. Ma'lumki, ishsizlik to'g'risidagi ma'lumotlarning ikkita manbai bor: rasmiy, aniq pasaytirilgan ma'lumotlar va kasaba uyushmalari ma'lumotlari. Ular o'z funksiyalarini to'la bajarganda kasaba uyushmalari ma'lumotlaridan foydalanish lozim.

G'arb iqtisodchilari unumdorlikning quyidagi ko'rsatkichlarini mahsulotning qiymat ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish omillarini turlicha birlashtirib aniqlaydilar:

- mehnatning yalpi unumdorligi;
- mehnatning sof unumdorligi;
- mehnatning integral unumdorligi;
- omillarning global unumdorligi;
- omillarning total unumdorligi.

Mehnatning yalpi unumdorligi ko'rsatkichlari o'z mazmuniga ko'ra, xarajat birligiga mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichiga juda yaqin va u quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$YAMU = YACH / T$$

Bunda: YAMU - yalpi mehnat unumdorligi;

YACH - yalpi ishlab chiqarish;

T - mehnat sarfi.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda yalpi ishlab chiqarish tannarx, narxlar omili yoki bozor narxlari bo'yicha aniqlanadi. Mehnat sarflari ham quyidagilar sifatida ifodalanishi mumkin:

- a) yollanma xodimlar soni;
- b) barcha toifadagi bandlar soni;
- v) ishlagan kishi/soatlar soni;
- g) soliqlar chegirilishidan oldingi hisoblangan ish haqi summasi.

Bu ko'rsatkichning asosiy kamchiligi faqat jonli mehnatni hisobga olib, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmasligidir.

Sof mehnat unumdorligi ko'rsatkichi sof mahsulot qiymatining mehnat sarflariga nisbatini ifodalaydi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha sof mahsulot (sof qo'shilgan qiymat) tarmoqlararo mahsulot balansi asosida yalpi mahsulot ishlab chiqarish qiymatidan oraliq iste'mol qiymati va doimiy kapital iste'molini chegirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu holatda mehnat sarfi ko'rsatkichlari yalpi mehnat unumdorligini aniqlash bilan bir xil bo'ladi.

Integral mehnat unumdorligining yalpi chiqaruv qiymati mehnat birliklarida ifodalangan mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish omillariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Uning darajasi, dinamikasi jami va oldingi mehnat sarflariga bog'liq bo'ladi. Bu ko'rsatkich amaliyotda juda kam hollarda hisoblanadi, buning sababi doimiy kapital sarflari (amortizasiya) va o'zgaruvchan kapital sarflari (qolgan boshqa moddiy sarflar)ni mehnat birliklarida qayta hisoblashdagi qiyinchiliklardir.

Iqtisodchilarning fikricha, omillarning global unumdorligi unumdorlikning eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. U unumdorlik darajasiga faqat jonli mehnat sarfinigina emas, balki boshqa omillar sarfining ta'sirini ham aks ettiradi. SHuning uchun mehnat unumdorligi omillarning global unumdorligi munosabatida unumdorlikning xususiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'riladi.

Omillarning global unumdorligi sof mehnat unumdorligi bilan bog'langan. Sof mehnat unumdorligini hisoblashda uning maxrajiga faqat jonli mehnat sarflari qo'shiladi. Boshqa ishlab chiqarish omillarining sarflari sof mahsulotni aniqlash uchun suratda yalpi chiqaruv qiymatidan chegiriladi. Omillarning global unumdorligini aniqlashda yalpi chiqaruvning to'la qiymati surat xizmatini o'taydi, maxrajida - boshqa ishlab chiqarish omillarining sarflari jonli mehnat sarflariga qo'shiladi.

Global unumdorlik omillarini aniqlashda mahsulot ko'rsatkichi sifatida chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati yoki yalpi qo'shilgan qiymatdan foydalanish mumkin.

Total unumdorlik omillari global unumdorlik omillari bilan bir xil hisoblanadi. YAgona farq shundaki, total unumdorlik omillari ko'rsatkichining suratida sof qo'shilgan qiymat (sof mahsulot)ning miqdori bo'ladi. Maxrajda mehnat sarfi va doimiy kapital aks ettiriladi.

Qator iqtisodchilar mehnat unumdorligini milliy iqtisodiyot ko'lamida o'lchash uchun unumdorlikning yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlaridan tashqari, mehnat sarfi birligi hisobiga haqiqiy daromadlar ko'rsatkichidan foydalanishni tavsiya qilmoqdalar. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot qiymatini uni yaratish uchun sarflangan mehnat sarfiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bunda mehnat sarflari iqtisodiyotda band bo'lganlar soni yoki ishlangan kishi/soatlari soni orqali ifodalanadi.

Xalqaro statistikada qo'llaniladigan unumdorlik ko'rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ko'rgazmali tasavvur qilish mumkin.

6.2.1-jadval

Xalqaro statistikada qo'llaniladigan unumdorlik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Kasrda	
		surat	maxraj
1	Mehnat unumdorligining natura shaklidagi ko'rsatkichlari	Mahsulotni natura shaklidagi birliklarida chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
2	Mehnat unumdorligining shartli-natura shaklidagi ko'rsatkichlari	Mahsulotni shartli-natura shakli birliklarida chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
3	Mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlari		
A	YAlpi mehnat unumdorligi	Yalpi qo'shilgan qiymat, mahsulotni yalpi ishlab chiqarish	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birliklarida
V	Sof mehnat unumdorligi	Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot	Mahsulot ishlab chiqarishga mehnat sarflari, vaqt birligida
S	Integral mehnat sarflari	Yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish	Ishlab chiqarishning vaqt birligida ifodalangan barcha omillari
D	Global mehnat unumdorligi	Yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi mahsulot chiqarish	Ishlab chiqarishning pul ifodasidagi barcha omillari
E	Total mehnat unumdorligi	Sof qo'shilgan qiymat, sof mahsulot	Pul ifodasidagi mehnat va doimiy kapital
F	Mehnat sarfi birligiga haqiqiy daromadlar	Yalpi ichki mahsulot (sof mahsulot)	Vaqt birliklaridagi mehnat sarflari

Savol: Sizlar shu sur'atda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar natijaviy ko'rsatkich sifatida ishlatilishiga munosabatinglar qanday?

Javob: SHuncha qo'rsatkichni o'rniga bittasini olsa bo'lmaydimi.

Javob: Menimcha birinchi va oxirgi ko'rsatkichlarning o'zi etarli bo'lsa kerak.

Javob: Menimcha sof qo'shilgan qiymatni o'zi etarli bo'lsa kerak.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

Mehnat unumdorligini ahamiyati hal etuvchi omil bo'lganligi uchun hamma taklif qilayotgan ko'rsatkichlar ham qo'yilgan muammoni hal etishni yoritish uchun kerak bo'ladi. Masalan: faqatgina bir turdagi mahsulot bo'yicha o'rganib qolmasdan, balki iste'mol qiymati bir xil bo'lgan mahsulotlar bo'yicha ham, ya'ni, ikkinchi ko'rsatkich ham amaliyotda qo'llanadi (nashriyotda b.t. va x.k.).

Savol: Jadvalda ko'rsatilgan maxraj, ya'ni, xarajatlar haqida qanday fikrdasiz?

Javob: Faqat vaqt birliklarining o'zi kifoya.

Javob: Ishchilar soni ko'rsatkichi bo'lishi lozim.

Javob: Xodimlar soni ko'rsatkichi bo'lishi kerak.

O'qituvchi javoblarga quyidagicha umumlashtiradi:

